

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK:336.71

ABDUJABBAROV ANVAR RUSTAM O'G'LI

**INVESTITSIYA LOYIHALARINI XORIJIY BANKLAR
KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISH**

**5A230603 – Investitsiyalarni boshqarish
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
Iqtisod fanlari doktori, professor
D.G'.G'ozibekov**

TOSHKENT – 2015

M U N D A R I J A

KIRISH.....

I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNI NAZARIY-XUQUQIY ASOSLARI.....

1.1. Investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli.....

1.2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy banklar kredit liniyalarining ahamiyati.....

1.3. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning xuquqiy asoslari.....

II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....

2.1. Xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mezonlari, shartlari va kredit risklarini boshqarish amaliyoti.....

2.2. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning amaliyoti tahlili.....

2.3. "Interer-kroup" investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili.....

III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARNI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....

3.1. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish jarayonidagi muammolar.....

3.2. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

ILOVALAR.....

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, bir qancha xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklar bilan o'zaro foydali aloqalar o'rnata boshladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, kengaytirish uchun huquqiy asoslarini yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Ko'plab Prezident Farmonlari va Hukumat qarorlari ishlab chiqildi. Bular, avvalo, "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahrir), "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunlar hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lib, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklar bilan aloqasi ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim vazifalarni birga qo'shish maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunda, birinchidan, O'zbekistondagi barcha xo'jalik sub'ektlarining tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalari uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keladigan shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga qo'shilish nazarda tutiladi. Ikkinchidan, respublikaning joriy muammolarini hal etishga bevosita ko'maklashish, mavjud xalqaro tajriba asosida moliyaviy, texnikaviy yordam va maslahat olish yo'li bilan o'tkazilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: "2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb

qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir"¹.

Bundan ko'rinib turibdiki, 2014 yilda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy kreditlarning xorijiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 25,8 foizni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2010 yilda 13,2 foizni tashkil qilgan edi. Bu esa, hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib (O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatini hisoga olib), chet el banklari kreditlarini jalb qilish holati sustligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda shu narsa aniq bo'lib qoldiki, Vatanimizning barqaror rivojlanishi yuqori darajadagi investitsiyaviy faollikka bog'liqdir. Unga esa ichki va tashqi investitsiya resurslarini jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanish orqali erishiladi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, chet el investitsiya va kreditlarini jalb qilish iqtisodiyotni rivojlantirishga yordamlashadi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Yurtboshimiz bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Chet el sarmoyasini jalb qilishni bevosita investitsiyalar tarzida ham, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida ham amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Biz maxsus investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun chet el sarmoyasini jalb qilishga alohida e'tibor beramiz"².

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy banklar kreditlarini jalb qilish va shu asosda strategik muhim investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hozirda iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi g'oyat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar, №11. 1-b.

² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995. 243-b.

dolzarb masalalardandir. Bu esa, o'z nabatida, xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasini tadqiq etish, bu boradagi tendentsiyalarni va muammolarni aniqlash, investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish zarurligini keltirib chiqaradi va magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ilmiy ishning ob'ekti sifatida O'zbekistonda investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish faoliyati olingan. Ishning predmetini investitsiya loyihalarni xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish dissertatsiyaning bosh maqsadini tashkil qiladi. Ushbu maqsadga erishish dissertatsiyada quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

- investitsiya loyihalarining mazmuni, mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi rolini yoritish;
- O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy banklar kredit liniyalarining ahamiyatini o'rganish va uning zarurligini asoslash;
- investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yoritish;
- investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari asosida moliyalashtirish shart-sharoitlarini tahlil qilish;
- investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish amaliyotini tadqiq etish;
- investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- investitsiya loyihalarni xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga

moliyalashtirishni takomillashtirish yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati yoritildi, tavsiflandi va tasniflandi, investitsiya loyihalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli ochib berildi;

– O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy banklar kredit liniyalarining o'rni va ahamiyati yoritildi hamda asoslab berildi;

– investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, shart-sharoitlari ochib berildi;

– investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish amaliyoti tadqiq etildi va unga oid tendentsiyalar aniqlandi;

– investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish amaliyoti yuzasidan muhim ilmiy ahamiyatga doir xulosalar shakllantirildi;

– investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish jarayonidagi muammolar aniqlandi va uni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi;

– investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy banklari kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning nazariy, uslubiy, amaliy yo'nalishlari bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlar va mutaxassislarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Бочарев В.В., Брука Н., Ивасенко А.Г., Марголин А.М., Нешитой А.С., Колтынюк Б.А., Панова Г.С.larning ilmiy ishlarida investitsiyalarning nazariy asoslari,

iqtisodiyot taraqqiyotidagi roli, investitsiyalarning samaradorligi tahlili, investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Respublikamiz iqtisodchi-olimlaridan – D.G'ozibekov, Sh.Abdullaeva, A.Vaxobov, D.Tojiboeva, Sh.Xojibakiev, N.Muminov, A.Jo'raev, D.Xo'jamqulov, B.Mamatov, B.Xodiev, Sh.Shodmonov, U.G'afurov, N.Karimov, Sh.Axmadjonov va boshqalarning ilmiy ishlarida investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi, turlari, shakllari, investitsiya loyihalarining moliyaviy ta'minoti, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, investitsiyalar tahlili masalalari aks ettirilgan. Biroq, bugungi kunda xorijiy banklar kredit liniyalari mablag'laridan foydalanish mexanizmi va uni tartibga solish masalalarini yanada chuqurroq o'rganish talab etilmoqda.

Bugungi kunda respublika iqtisodiyotida xorijiy banklar bilan o'zaro hamkorlik faollashib bormoqda. Shuning uchun ham bu hamkorlikning iqtisodiy mohiyatini, uning iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi ahamiyatini va zaruratini asoslash va tahlil etish, xorijiy kreditlarni jalb qilish shakllarini takomillashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish yo'lidagi muammolarni bartaraf etish va xorijiy banklar kredit liniyalari mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, guruhlash, qiyosiy, iqtisodiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalaridan iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida investitsiya loyihalarini xorijiy banklarning kreditlari hisobiga moliyalashtirish mexanizmini maxsus chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar O'zbekiston tijorat banklarining xorijiy banklar kredit liniyalaridan foydalanish jarayonini

takomillashtirish tadbirlari ishlab chiqilishida qo'llanilishi mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Bank ishi", "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Xorijiy investitsiyalar" fanlari o'quv dasturlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 96 sahifadan iborat bo'lib, 11 ta jadval, 9 ta rasm va 3 ta ilovani o'z ichiga qamrab olgan.

I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNI NAZARIY- XUQUQIY ASOSLARI

1.1. Investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rni tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab etganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsiya jarayoni, davlatning investitsiya siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsiyaviy faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsiyaviy faollikni ta'minlash, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsiya faoliyatini tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha ham qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ko'paytirish, jumladan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish va boshqaruv faoliyati rivojlantirilib kelinmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish yangi investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish va ularni moliyalashtirishning optimal variantlarini qidirib topish talablarini keltirib chiqardi. Amaliyotda investitsiya loyihalarining hajmi,

miqdori va moliyalashtirish manbalariga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Investitsiya loyihasi tushunchasining tobora keng qo'llanishi, avvalom bor, ushbu atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Investitsiya loyihasi tushunchasiga uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin. Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi.

Prof. D.G'ozibekov investitsiya loyihalari to'g'risida fikr bildirib: «investitsiya loyihasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda alohida turdagi samaralar keltirishi zarur bo'lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo'li bilan resurslarni investitsiyalash bo'yicha takliflar to'plami tarzida ta'rif berish mumkin»³, deb ta'kidlab o'tadi. Shuningdek investitsiya loyihasining sifat-tavsiflarini, boshqa tadbirlardan farq qiluvchi jihatlarini ochib berishi diqqatga sazovordir⁴, deb ta'kidlaydi.

Rossiyalik iqtisodchi-olim B.A.Koltinyukning fikricha⁵: «investitsion loyiha keng ma'noda foyda olish maqsadida kapital qo'yish rejasi» tarzida ifodalab, uni ikki xil ma'noda talqin etadi: aniq maqsadlarga erishish (aniq natijalar olish)ni ta'minlovchi qandaydir harakatlar majmuini amalga oshirishni nazarda tutuvchi tadbir, faoliyat; qandaydir harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq hisob-moliyaviy va tashkiliy-huquqiy hujjatlarni qamrab oluvchi tizim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 9 apreldagi 165-sonli “Chet el investitsiyasi ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq: “investitsiya

³ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. 67-68-b.


⁴ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. 67-69-b.

⁵ Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. – Стр. 13.

loyihasi bu ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik-iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabilarga asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks hujjatlar yig'indisi"⁶ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida: "Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo'sindagi foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir"⁷, deb ta'riflangan.

Qayd etish joizki, investitsiya loyihasi to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjatlar to'plami hisoblanadi. Investitsiya loyihasi kelishilgan muddatlarda aniq maqsadlarga erishish hamda rejalashtirilgan natijalarni olish uchun aniq miqdordagi resurslarni (intellektual, moliyaviy, moddiy) qo'yishni, joylashtirishni ko'zda tutuvchi tadbirlar majmuidir. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlarini 1-rasm asosida tasvirlash mumkin.



1.1-rasm. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlari⁸

⁶ Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T: "IQTISOD-MOLIYA" 2008. 34-b.


⁷ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2014 yil 29 oktyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2014 yil 13 noyabrda ma'qullangan. 2014 yil 9 dekabr, O'RQ–380-son.

⁸ Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. 40-b.

Shuni ham ta’kidlash joizki, investitsiya loyihasini amalga oshirishning bosh maqsadi foyda (daromad) olishga yoki hech bo’lmaganda kapital qiymatini saqlab qolishga qaratiladi.

Investitsiya loyihasi uch tomonlama cheklangan bo’lib, muayyan iqtisodiyotda, hududda amalga oshirilishi bilan, belgilangan vaqt bilan cheklanadi. Mazkur hududda belgilangan vaqtda loyiha amalga oshirilsa, u o’zining maqsadiga erishish kuchiga egadir. Investitsiya loyihalari yana bir tomondan cheklanishi, ya’ni unga safarbar etiladigan resurslar qiymati (xom ashyo, mehnat va moliyaviy resurslari qiymati) o’zgarib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasini quyidagicha tasniflash mumkin:



1.2-rasm. Investitsiya loyihasining tasniflanishi⁹


Amaliyotda investitsiya loyihalarining turlicha tasnifi mavjud bo’lib, belgilariga qarab investitsiya loyihalarining quyidagi ko’rinishlarini ajratish mumkin (1.3-rasm).

Loyiha – bu o’ziga xos faoliyat turi bo’lib, uning bir qancha o’ziga xos belgilari mavjud. Lekin uning asosiy 4 ta belgisi loyihani boshqa turdagi faoliyatlar va tadbirlardan ajratib turadi:

- loyiha maqsadlari aniq belgilangan bo’lishi kerak;
- loyiha aniq (odatda, oldindan belgilangan) muddat davomida amalga oshirilishi lozim;

⁹ Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. 41-b.

- loyihada o'zaro bog'liq harakatlarni bajarilishini muvofiqlashtirish lozim;
- loyiha unikal bo'lishi lozim.



1.3-rasm. Investitsiya loyihalarining kengaytirilgan tasnifi¹⁰

Har bir loyihaviy faoliyat quyidagi 3 ta chegaralanishga ega:

1. Vaqt bo'yicha chegaralanishi;
2. Pul resurslari bilan chegaralanishi;

¹⁰ Rasm prof. D.G'.G'ozibekovning 2003 yilgi "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari" nomli monografiyasi asosida shakllantirildi.

3. Texnik vazifalar bilan chegaralanishi (ishlar va operatsiyalarning turlari va sifatiga bo'lgan talab, investitsiya faoliyati ob'ekting texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari).

Loyiha boshqa chegaralanishlarga ham ega bo'lib, ular orasida loyihani amalga oshirishning tashqi shart-sharoitlari alohida ahamiyat kasb etadi (institutsional, iqtisodiy, huquqiy va boshqalar).

Loyihalarni 3 turdagi aktivlar (mulk) hisobiga moliyalashtirish mumkin: 1) Moliyaviy investitsiyalar va qarzlar. Bularga qimmatbaho qog'ozlar, bankdagi depozitlar, kreditlar, pul mablag'lari, yuqori likvidli qimmatbaho predmetlar kiradi; 2) Material (moddiy) aktivlar. Bularga ko'chmas mulk, asosiy vositalar, er, ishlab chiqarish texnikasi, liniyalari, xom ashyo, va materiallar kiradi; 3) Nomoddiy aktivlar. Bularga nou-xau, himoyalangan firma nomidan foydalanish xuquqi, intellektual mulk, innovatsiyalar, ishchi kapitali aqliy mahsuli kiradi.

Investitsiya loyihasi investor nuqtai nazaridan samarali deb baholanishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish ijobiy bo'lishi, ikkinchidan, muqobil loyihalarni solishtirish chog'ida yuqoriroq samaraga ega bo'lgan loyihani ma'qul ko'rish lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish, pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va boshq.

So'nggi yillarda iqtisodiyotda faol amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar va modernizatsiya qilish jarayoni investitsiya faolligini yanada oshirdi. Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda o'sib borishi milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi va investitsiyalar miqdori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Jumladan, 2002-2014 yillar oralig'ida investitsiyalar hajmi 1,4 mlrd. AQSh dollaridan 14,6 mlrd. AQSh dollariga etgan va 2002 yilga nisbatan 10,4 martaga ortgan (1.1-jadval). Bu holat investitsiyalarning YaIMdagi salmog'ining o'sishiga olib keldi, jumladan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2007 yilda 21,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bu ko'rsatkich 23,5 foizga ko'tarildi.


1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va investitsiyalarning o'sish sur'atlari dinamikasi¹¹

Yillar	YaIM (mlrd. AQSh dollari)	Oldingi yilga nisbatan foiz hisobida	Investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)	Avvalgi yilga nisbatan, foiz hisobida
2002	7,4	104,2	1,4	103,8
2003	9,7	104,4	1,9	104,5
2004	12,2	107,7	2,5	105,2
2005	15,2	107,0	2,9	107,0
2006	17,0	107,3	3,3	111,4
2007	22,3	109,5	4,7	123,0
2008	28,1	109,0	6,5	128,3
2009	32,1	108,1	8,2	124,8
2010	38,7	108,5	9,7	113,6
2011	45,9	108,3	10,8	111,2
2012	49,6	108,2	11,7	114,0
2013	53,3	107,4	13,0	118,2
2014	59,7	108,1	14,6	110,9

Bu esa mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganligini ko'rsatadi (1.4-rasm).

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).



1.4-rasm. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %da¹²

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida 2011-2014 yillarda o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi. Shular qatorida «Zenit elektroniks» qo'shma korxonasida «Samsung» kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida «MAN» yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga etkazildi. Shu bilan birga, Toshkent va Namangan viloyatlarida zamonaviy to'qimachilik komplekslari, Jizzax va Xorazm viloyatlarida yigiruv va to'quv, Samarqand viloyatida sport poyabzallari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha 21 ta korxonada ishlab chiqarish

¹² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).

modernizatsiya qilindi va texnik qayta jihozlandi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Mamlakatimizda qayta ishlash tarmoqlaridan sanoat va qishloq xo'jaligi sohasini tahlil qiladigan bo'lsak, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 2007 iyilga nisbatan 4,1 martaga, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish esa 4 martaga ortgan (Qarang: 1.2-jadval). Biroq, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi 2014 yilda 2007 yilga nisbatan 13,5 f.p.ga, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi esa 7,5 f.p.ga kamaygan. Bunday holat YaIMning o'sish sur'atlari, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlaridan yuqori ekanligini ko'rsatadi va ijobiy holat hisoblanadi.

1.2-jadval

Mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari¹³

№	Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 Yil	2014 yil	O'zgarishi
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	28190,0	38969,8	49375,6	62388,3	78764,2	97929,3	118986,9	144867,9	5,1 marta
2	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish, mlrd. so'm	18447,6	23848,0	28387,3	34499,1	42158,8	51059,3	64354,7	75193,5	4,1 marta
3	Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish, mlrd. so'm	9304,9	11310,7	13628,6	16774,7	21422,3	27164,2	30849,4	36957,0	4,0 marta
4	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi, % da	65,4	61,2	57,5	55,3	53,5	52,1	54,1	51,9	-13,5 f.p.
5	Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning YaIMdagi ulushi, % da	33,0	29,0	27,6	26,9	27,2	27,7	25,9	25,5	-7,5 f.p.

Ma'lumki, biz mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).

maqsadlar qo'yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarini tashkil etish yo'lida oxirgi yillarda biz ko'pgina tajribalarga ega bo'lmoqdamiz. Buning amaliy tasdig'ini «Navoiy» va «Angren» maxsus industrial zonalarini faoliyati misolida ko'rish mumkin. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

«Angren» maxsus industrial zonasi hududida qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar bo'lgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorug'lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko'mir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, shakar ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi. Ayni shu yo'nalishda to'plangan tajribani hisobga olib, o'tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» maxsus industrial zonasi tashkil etildi.

Chet ellik investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, qo'shma korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'i o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan (1.3-jadval). Natijada 2015 yil 1 yanvar holatiga xorijiy investitsiyalarning jami kapital qo'yilmalar tarkibidagi ulushi 21,2 foizni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i 15 foizni tashkil etdi. Bu esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

1.3-jadval**O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning dinamikasi¹⁴, foiz hisobida**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i	26,2	35,4	28,9	23,4	22,0	23,1	21,2
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i	21,1	30,4	25,1	18,4	17,4	16,6	15,8

Albatta, bunday natijalarning qayd etilgani mamlakatimizda faol va samarali investitsiya siyosati olib borilayotganligidan dalolat beradi hamda mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti, makroiqtisodiy barqarorlik va xalqaro valyutaviy to'lov qobiliyati saqlanib qolganligini ko'rsatadi.

1.2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy banklar kredit liniyalarining ahamiyati

Ma'lumki, xorijiy banklar yoki xorijiy davlatning banki deganda xorijiy davlatga tegishli banklar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida: "xorijiy davlatning banki xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan va u joylashgan hamda ro'yxatga olingan joydagi bank nazorati organi tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bank"¹⁵, deb ta'riflangan. Xorijiy davlatning banki vakolatxonasi esa O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, O'zbekiston Respublikasi hududida uning akkreditatsiya qilinganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sertifikatiga ega bo'lgan, bank va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqisiz bank manfaatlarini ko'zlab ish

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 22 noyabrda 685-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2009 yil 23 yanvarda 1883-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

yuritadigan alohida bank bo'linmasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizning ishlab chiqarish tarmoqlariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi, import o'rnini bosuvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xorijiy banklarning kredit resurslarini investitsiya loyihalarini, shu jumladan, kichik biznes loyihalarini, ya'ni xususiy sektorni moliyalashtirishga jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida Vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni etkazib beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosati olib borilmoqda, tashqi iqtisodiy faoliyat yanada erkinlashtirilmoqda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yanada takomillashtirimoqda, xorijiy banklar kredit liniyalaridan to'liq foydalanish maqsadida kredit olish uchun taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asoslashlarni puxta-pishiq ishlab chiqish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy banklar xususiy sektorga alohida e'tibor bermoqdalar. Dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi xorijiy banklar, jumladan, Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi kredit liniyasi, Xususiy Sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi moliyalashtirish liniyasi, Germaniyaning "Commerzbank AG", "Landesbank AG", "Landesbank Berlin AG" kredit liniyalari va Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV), Koreya Eksport-import banki kredit liniyasi, shuningdek, Xitoy taraqqiyot Davlat banki kredit liniyalari, aynan, xususiy tarmoqni rivojlantirish uchun investitsiya kiritishga tayyor ekanliklari shundan dalolat beradi. Buning sababi shuki, xususiy tarmoqni rivojlantirish davlat mulkchiligiga asoslangan totalitar tuzumdan xususiy mulkchilik tamoyillari amal qiladigan demokratik jamiyatga o'tish jarayonining uzviy qismi bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi o'rin tutishini unutmashimiz kerak. Aynan mulkchilik shaklining o'zgarishi iqtisodiyot va jamiyat hayotida ortga qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar va o'zgarishlar uchun

mustahkam zamin va asos yaratadi. Shundagina jamiyat hayotida ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishning, mehnatga munosabatning tamomila yangicha tamoyillari amal qila boshlaydi.

Xorijiy banklar tomonidan mamlakatimizda kichik biznesni moliyalashtirishdagi faolligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Jumladan, YaIMni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi. 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. O'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi¹⁶. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirilayotgan ana shunday chora-tadbirlar o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan YaIM hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta davlati orasida 2010 yildagi 72-o'rindan 66-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014 yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida esa 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni engillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha etakchi o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Albatta bunday rivojlanish ko'rsatkichlari mamlakatimizga xorijiy

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar, №11. 1-b.

banklarning kredit liniyalarini jalb qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov mustaqilligimizning birinchi kunlaridan boshlab xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e'tirof etgan holda: "Sarmoya olamida birovning yuzi yoki ko'zi yaxshi deb qarz berish rasm emas, buni sizlar tushunasizlar. Chet el kreditorlari O'zbekistonga ishonsa bo'ladigan, payti kelganda qarzni to'lashga qodir bo'lgan kuchli sherik deb qaramoqdalar"¹⁷, deb ta'kidlagan edilar.

Ma'lumki, jahondagi biron-bir davlat xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilmasdan turib taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisholgan emas. Shuning uchun ham bu ish bizning iqtisodiy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Biz bu siyosatni quyidagi tamoyillar asosida qurmoqdamiz¹⁸: tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga kapital mablag'larni jalb etishni ta'minlovchi huquqiy asos, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni shakllantirish; jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalarni etkazib beruvchi hamda xalq xo'jaligining zamonaviy tuzilmalarini barpo etishga ko'maklashuvchi xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini muntazam ravishda yuritish; mablag'larni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish bilan bog'liq eng muhim ustuvor yo'nalishlarga sarflash. Shu bois Respublika Prezidenti bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Biz maxsus investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun chet el sarmoyasini jalb qilishga alohida e'tibor beramiz"¹⁹. Bu jihatdan yondashadigan bo'lsak, mamlakatimizda tatbiq etiladigan investitsiya loyihalari ham texnologik jihatdan, ham mahsulot ishlab chiqarish va ham etishtirilgan mahsulotni taklif etish bozorlarini yangitdan o'zlashtirish vazifalarini qamrab oladi. Ya'ni, yangi mahsulot, yangi texnologiya va yangi bozorga chiqish va bir yo'la uch yo'nalishdagi vazifalarni ta'minlovchi investitsiyalarni kiritish, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, investitsion-

¹⁷ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. -T.: O'zbekiston, 1996. 28-29-b.

¹⁸ Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. T.: "O'zbekiston", 1996. 11-12-b.

¹⁹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: «O'zbekiston», 1995. 243-b.

innovatsion loyihalarni tatbiq etish vazifasini yuklatadi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 2014 yilda 33715,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan 2,2 marta ortgan, ya'ni asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida yildan-yilga o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Biroq, mazkur davr davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 1.3 f.p.ga kamaygan. Bu esa, YaIMning o'sish sur'atlari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlaridan yuqori ekanligini ko'rsatadi (1.4-jadval).

1.4-jadval

2010-2014 yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi²⁰

№	Ko'rsatkichlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2014 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	62388,3	78764,2	97929,3	118986,9	144867,9	2,3 marta
2	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	15338,7	17953,4	22797,3	28694,6	33715,3	2,2 marta
3	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %da	24,5859	22,7939	23,2793	24,1158	23,27313	-1,3 f.p.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirishda xorijiy banklarning kredit liniyalaridan samarali va oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).

Bir vaqtning o'zida milliy iqtisodiyotga xorijiy banklarning kredit liniyalarini faol jalb qilish qator ijobiy samaralar keltiradi. Xususan, xorijiy kreditlarni jalb qilish raqobatbardosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xorijiy banklar bilan amaliy hamkorlik o'rnatish orqali jahon amaliyotida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish asosida quyidagi samaralarga erishish mumkin bo'ladi:

- eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini yo'lga qo'yish, yangi texnologiya, zamonaviy jihozlarni, yuqori unumli uskunalarni qo'lga kiritish;

- yangi ish joylarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash;

- ixcham, amalga oshirilgan xarajatlarni tez sur'atlar bilan qoplaydigan, yuqori samara beradigan korxonalarni qurish;

- zamon darajasida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mahsulot tannarxini pasaytirish, o'z manfaatlariga erishish;

- qo'shma korxonalar tuzish, ilg'or tajribaga ega bo'lish, boshqaruvni, raqobatni to'g'ri yo'lga qo'yish;

- bozor talabini qoniqtiradigan mahsulot (xizmatlarni) etishtirish, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan qilib etkazish;

- tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uni yanada kengaytirish imkoniyatlarini qo'lga kiritish, daromadni ko'paytirish, yuqori samaraga erishish, sarf etilgan mablag'larni hech qanday talofat va yo'qotishlarsiz tez fursatda qoplash;

- jahon bozorida o'zining mustahkam mavqeni egallash;

- mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish va jahon bozorida «qattiq» valyuta ishlab topishni o'rganish;

- mamlakat xazinasini to'ldirish;

- ichki va tashqi bozorga olib chiqiladigan mahsulotlar (ish, xizmat)ga bo'lgan talabni qondirish;

– milliy va jahon iqtisodiyoti ravnaqi va jamiyat farovonligini oshirish.

Ushbu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin, chunki xorijiy banklar bilan hamkorlik o'rnatish, ular bilan qo'shma faoliyat olib borish milliy iqtisodiyotda tub tuzilmaviy o'zgarishlarga olib keladi, mamlakat qudratini yanada oshirib, milliy valyuta mavqeini mustahkamlaydi, aholi farovonligini ta'minlab, turmush tarzini yaxshilaydi.

1.3. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishning xuquqiy asoslari

Istiqlolning ilk yillaridan boshlab O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, bir qancha xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy banklar bilan o'zaro foydali aloqalar o'rnatish boshladi. Uning huquqiy asosini yaratib bergan qonun hujjatlari qabul qilindi, ko'plab Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari ishlab chiqildi²¹.

Jalb etilgan xorijiy kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash, korxonalarining O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida berilgan xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun javobgarligini oshirish maqsadida 2003 yil 14 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy kreditlar o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra tijorat banklariga qarz oluvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlangan kreditlar bo'yicha qarzlarini o'z vaqtida qaytarmagan hollarda pul mablag'larini qarz oluvchining hisob raqamidan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish va ularni kreditlar bo'yicha qarzlarini qaytarishga yo'naltirish huquqi berildi. Qarz oluvchi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida berilgan muddati o'tkazib yuborilgan xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarishda to'lanayotgan

²¹ Bular, avvalo, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi Qonunlar hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lib, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart-sharoitni yaratishga imkon berdi.

summaning kamida 90 foizi majburiy tartibda asosiy qarzni qaytarishga yo'naltirildi. Muhimi, endilikda Hukumat kafolati ostida ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan yoki muddati kechiktirilgan to'lovlari bo'lgan korxonalar bo'yicha yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan takliflar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida olingan xorijiy valyutadagi kreditlarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatishga doir qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi uchun shaxsiy javobgarlik Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar, vakolatli banklar rahbarlari zimmasiga yuklatildi.

Shuningdek, ushbu Qarorga ko'ra 2003 yil 1 iyuldan boshlab: O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati faqat xorijiy kreditorlarga xorijiy davlatlar, banklar yoki yuridik shaxslar bilan tashqi qarz shartnomalari bo'yicha beriladi; tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati istisno hollarda Hukumat kafolati ostida olingan xorijiy kreditlarni qayta moliyalashtirish yoki qaytarish manbai sifatida davlat byudjeti mablag'lari belgilangan ustuvor strategik va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlash uchun beriladi.

Albatta, ushbu Qaror xorijiy banklarning kreditlaridan samarali va oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatni oshiradi. Bu esa xorijiy kreditlar asosida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Islom taraqqiyot banki ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 10 fevraldagi "Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 65-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorda Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirish mo'ljallangan loyihalar ro'yxati ma'qullandi hamda Islom taraqqiyot banki bilan birgalikdagi loyihalar va texnik ko'maklashish grantlarini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 16 iyuldagi 15/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan 613-sonli "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra sinditsiyalashtirilgan kreditni berishga xorijiy banklar va boshqa xorijiy moliyaviy institutlar jalb etilishi mumkin. Bu holda sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan tuzilgan bitimlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi hamda sinditsiyalashtirilgan kreditlar faqat yuridik shaxslarga beriladi. Bunday holat mamlakatimizda yirik investitsiya loyihalarini²² moliyalashtirishda xorijiy banklarning ham faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini O'zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya muhiti hamda mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya sarflashning potentsial imkoniyatlari to'g'risida keng xabardor qilishni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini aniq-puxta muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida 2008 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-927-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish bo'yicha qarorlarni ko'rib chiqish, muhokama etish va qabul qilishda, har yilgi Investitsiya dasturlarini, shuningdek tarmoqlar va mamlakat mintaqalarini rivojlantirishning o'rta muddatli dasturlarini tayyorlashda etakchi bo'g'in hisoblanishi, uning zimmasiga mazkur masalalarni hal etishda idoraviy

²² Sinditsiyalashtirilgan kredit – bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash; yirik investitsiya loyihasi - umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi; bank sindikati - sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv; etakchi bank - sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank; ishtirokchi bank – sinditsiyalashtirilgan kredit berishda qatnashuvchi bank.

mansubligidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mas'uliyati yuklatildi. Muhimi, "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o'zlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom va "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonida loyihalar tashabbuskorlari va davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish Sxemasi" tasdiqlandi. Albatta, bu holat mamlakatimizda xorijiy kreditlardan foydalanish tizimini tartibga solish va ularni samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 22 noyabrdagi 685-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOM O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini²³ akkreditatsiya qilish tartibini belgilab berdi. Ta'kidlash joizki, vakolatxona O'zbekiston Respublikasi bank sohasidagi iqtisodiy vaziyatni va holatni o'rganish maqsadida, maslahat berish, O'zbekiston Respublikasida Bank manfaatlarini ifodalash, kredit tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun bank tomonidan tashkil etiladi. Vakolatxona ochishda qisqa muddatli majburiyatlari IBCA, Moody's yoki Standart and Poor's agentliklari tasniflari bo'yicha A1 (yoki A+) dan past bo'lmagan reytingga ega banklar afzallikka egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 11 martdagi "Germaniya "KFV" Taraqqiyot banki mablag'larini jalb etgan holda moliya sektorini qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2007 yil 28 avgustdagi "Xitoy Taraqqiyot davlat bankining kreditidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008 yil 21 avgustdagi "Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda

²³ Xorijiy davlatning banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan O'zbekiston Respublikasi hududida o'z Vakolatxonasini ochish va uning faoliyat olib borishi uchun ruxsat berishi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999 yil 28 yanvardagi "Germaniyaning "KFV" taraqqiyot bankining kredit liniyasidan foydalanish to'g'risida"gi, 2004 yil 19 areldagi "Xitoy Xalq Respublikasi hukumati bilan moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi shuningdek, 1997 yil 2 oktyabrdagi "Koreya respublikasi hukumati kreditidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari mamlakatimizda xorijiy bank kredit liniyalari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning xuquqiy asoslaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 11 martdagi "Germaniya "KFV" Taraqqiyot banki mablag'larini jalb etgan holda moliya sektorini qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan mahalliy xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xizmat ko'rsatish, jumladan savdo sohalaridagi 100 dan 200 kishigacha band bo'lgan mikrofirmalar, kichik va boshqa korxonalar tomonidan qo'shimcha ish joylarini yaratish, shuningdek kasanachilikni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida moliyaviy hamkorlik haqidagi Bitimga muvofiq moliya sektorini qo'llab-quvvatlash Dasturini amalga oshirish maqsadida Germaniya "KfV" taraqqiyot banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga 0,75% yillik foizli stavka bilan 10 yil imtiyozli davrni ham hisobga olgan holda 40 yil muddatga jami 17,3 mln. evro miqdorida kredit liniyasi ochildi. Bunda 12,3 mln. evro miqdoridagi mablag'lar kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishga, 5 mln. evro esa ipotekani kreditlashga, shuningdek, moliya sektorini qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirishda texnik yordam ko'rsatish uchun 1,5 mln. evro miqdorida grant ajratildi. Shuningdek 2007 yil 28 avgustdagi "Xitoy Taraqqiyot davlat bankining kreditidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan 2007 yilning 14 avgustida Xitoy Taraqqiyot davlat banki bilan 60 mln. AQSh dollari miqdorida, 2,5 yil imtiyozli davrni ham hisobga olganda 12 yil muddatga,

O'zbekiston Respublikasi kafolatini bermagan holda kredit mablag'larini jalb etish to'g'risidagi qarz bitimi imzolangan bo'lib, kreditlar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan:

- meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash uchun mini-texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni xarid qilish;

- mahalliy xom ashyo chuqur qayta ishlanadigan zamonaviy, mahalliyashtirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish;

- qurilish materiallari ishlab chiqarish, jumladan, ularning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish;

- tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish;

- xizmat ko'rsatish va servis sohasini, shu jumladan, turizmni rivojlantirish.

Bunda Xitoy Taraqqiyot davlat bankining mazkur kredit majburiyati bo'yicha olingan foizlar va boshqa to'lovlardan iborat daromadlari O'zbekiston Respublikasida to'lov manbaidan daromad (foyda) solig'iga tortilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 avgustdagi "Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, respublika markaziy davlat arxivlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va elektron arxiv fondlarini tashkil etish, ularni arxiv materiallarini raqamlashtirish hamda qayta tiklash zamonaviy uskunalari bilan jihozlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining markaziy davlat arxivlarini axborotlashtirish" loyihasini amalga oshirish uchun Koreya Respublikasi Hukumati tomonidan 2008-2009 yillarda O'zbekiston Respublikasiga 3 mln. AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari berilgan edi. Bu mablag'larning barchasi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son Farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008 yil 24 iyuldagi PQ-927-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, loyiha tashabbuskorlari bo'lgan vazirliklar va idoralarga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga potentsial xorijiy investorlar va kreditorlarni qidirib topishda ko'maklashish yo'li bilan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonining samaradorligini va tezkorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 avgustdagi «Istiqbolli investitsiya takliflarini kelishish mexanizmini hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga ko'ra 2014 yil 1 oktyabrdan boshlab tashabbuskorlar tomonidan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va loyihalar pasportlarini davlat boshqaruvi vakolatli organlarida kelishish elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi" tizimi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, loyiha tashabbuskorlarining hamda davlat boshqaruvi vakolatli organlarining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va istiqbolli loyihalar pasportlarini Investitsiya takliflarining yagona elektron bazasi tizimi orqali kelishish jarayoni doirasidagi o'zaro hamkorligi sxemasi ishlab chiqildi. Bu esa, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishni nazarda tutuvchi investitsiya takliflari va istiqbolli loyihalarning amalga oshirish bosqichlarini, bu bo'yicha zarur tadbirlarni va bajarish muddatlarini aniqlashtirib beradi va natijada loyihalarning samarali ijrosini ta'minlaydi.

Birinchi bob bo'yicha qisqa xulosalar:

– iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash investitsiya faoliyati yuritilishining zaruriy investitsion muhitini yaratishni va uni tobora qulaylashtirib borishni talab etadi, investitsiya loyihasining amalga oshirilish hajmi, miqdori va dinamikasiga qarab mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi hamda holatini baholash mumkin va o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning bajarilish holati belgilangan maqsadlarni ta'minlanishiga qanchalik mos kelayotganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin;

– kelishilgan muddatlarda aniq maqsadlarga erishish hamda rejalashtirilgan natijalarni olish uchun aniq miqdordagi resurslarni (intellektual, moliyaviy, moddiy) qo'yishni, joylashtirishni ko'zda tutuvchi tadbirlardir yig'indisiga investitsiya loyihasi deyiladi. Shu bilan birga investitsiya loyihasi resurslar va muayyan vaqt bilan cheklanadi hamda qo'yilgan maqsadga erishishni ko'zda tutadi. U cheklangan davr davomida, belgilangan byudjet hisobidan qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan aniq maqsadni nazarda tutadi;

– investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chikarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim;

– investitsiya loyihalari qaysi sohada ishlab chiqilmasin, uning maqsadi resurslarning cheklanganligi yoki taqchilligi sharoitida ham barcha investitsiya imkoniyatlarini qidirib topish va ulardan to'liq va samarali foydalanishning optimal variantlarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi;

– xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan va u joylashgan hamda ro'yxatga olingan joydagi bank nazorati organi tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bank xorijiy bank hisoblanadi;

– milliy iqtisodiyotga xorijiy banklarning kredit liniyalarini faol jalb qilish raqobatbardosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir;

– xorijiy bank kredit resurslarini kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishga jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida Vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni etkazib beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini olib borish, tashqi va ichki iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish, ajratilayotgan xorijiy kreditlardan to'liq foydalanish maqsadida kredit olish uchun taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asoslashlarni puxta-pishiq ishlab chiqish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish lozim;

– xorijiy kreditlarni jalb etishda mamlakatda investitsiya iqlimining qulayligini ham tashkiliy-huquqiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash kerak bo'ladi;

– xorijiy kreditlarni jalb qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda xorijiy kreditlardan foydalanish tizimini tartibga solish va ularni samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mezonlari, shartlari va kredit risklarini boshqarish amaliyoti

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda xorijiy banklarning jalb qilinayotgan kredit liniyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, respublikamiz tijorat banklari ushbu maqsad yo'lida o'z kredit resurslarini shakllantirishda xorijiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunda respublikamizda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning bir qator shakllari mavjud. Unga ko'ra banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish keng shakllarda amalga oshirilmoqda. Unda tijorat banklarining kreditlash shakllari ichida xorijiy banklarning kredit liniyasini ochish yo'li bilan alohida ssuda schetidan kreditlash keng tarqalgandir.

Biz uchun muhim bo'lgan va yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlash shakli amaliyotda xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy banklar va boshqa xorijiy hamkorlar tomonidan mahalliy banklarimizda ochilgan kredit liniyalari ochish hisobiga amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, mazkur shaklda tadbirkorlik faoliyatini, xususan, investitsiya loyihalarini kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Unga ko'ra kredit liniyasi ochishda kreditdan maqsadli foydalanish va uni qaytarish ustidan nazoratni amalga oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamiz mahalliy banklarida ochilgan va investitsiya loyihalarini kreditlashda faol qatnashib kelayotgan xorijiy banklar kredit liniyalarining bir qator afzallik jihatlari mavjud bo'lib, ular, asosan, quyidagilardan iborat:

- bankning kreditni ishlatilish yuzasidan ta'sirli nazorat o'tkaza olishi;
- bank kreditning foiz stavkasidan tashqari ko'shimcha haq olishi;

– mijoz har safar kredit so'rab bankka murojaat qilish zaruriyatidan xalos bo'lishi;

– mijoz kreditning faqat ishlatiladigan qismi uchun foiz to'lashi.


Shundan kelib chiqib, bugungi kunda iqtisodiyotning turli tarmoq va hududlarida faoliyat olib borayotgan xo'jalik sub'ektlari, ayniqsa, kichik biznes vakillari tomonidan mahalliy tijorat banklarida ochilgan xorijiy banklar kredit liniyalarini o'zlari uchun qulay moliyalashtirish shakli sifatida qabul qilib, ulardan foydalanishga qattiq harakat qiladilar. Mazkur kredit liniyalari hisobidan foydalanish, shuningdek boshqa xorijiy kredit va investitsiyalarni jalb qilishda mamlakatimizda umumiy tartib belgilangan bo'lib, uni quyidagi rasm orqali aks ettirish mumkin (2.1-rasm).

Xorijiy banklar kredit liniyalari hisobidan investitsiya loyihalarini kreditlashda qo'yiladigan bir qator talablar borki, quyida ular to'g'risidagi asosiy jihatlarni yoritib o'tamiz.

1. *Kredit ta'minoti*. Tijorat banki tomonidan kredit liniyalari mablag'lari hisobidan berilgan kreditni qaytarish ta'minoti deganda aniq manbalar tushuniladi. Bunda birlamchi va ikkilamchi manbalar mavjud. Birlamchi manbalar: mahsulotlarni sotishdan olingan tushum; xizmatlar ko'rsatishdan olingan tushum; mijozning daromadi. Ikkilamchi manbalar: mulk va mulkiy huquqlarni garovga olish; talab va huquqlarni yon berish; kafolatlar; uchinchi shaxsning kafilligi; sug'urta polisi.

Mijozga tegishli mulklar garoviga quyidagilar kiradi: tovar-moddiy qimmatliklarni garovga olish (xom ashyo, yarim fabrikat, tayyor mahsulotlar); qimmatli qog'ozlarni garovga olish; kredit berayotgan bankdagi depozitlarni garovga olish; qo'zg'almas mulkni garovga olish.

Mulkiy huquqlarni garovga olishga quyidagilar kiradi: ijara huquqini garovga olish; mualliflik haqini garovga olish; pudrat shartnomasi bo'yicha buyurtmachilik huquqini garovga olish.



2.1-rasm. Respublikaga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish sxemasi²⁴

²⁴ Rasm O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-927-sonli Qarori asosida shakllantirildi.

Garov ob'ektining sifatiga qo'yiladigan talablar: garov predmeti kredit oluvchiga tegishli bo'lishi kerak; garov predmeti pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lishi kerak; garov predmeti likvidli bo'lishi lozim.

Tovar-moddiy qimmatliklarni sifat mezonlari quyidagilardan iborat: sotishning tezligi; baholarning nisbatan barqarorligi; sug'urta qilinganligi; uzoq muddat saqlanishi.

Garov ob'ektining etarliligi. Xalqaro bank amaliyotida, odatda, kreditning miqdori garovga olingan tovar-moddiy qimmatliklar qiymatining 85 foizidan oshmaydi. Bu esa, garov ob'ekti bahosining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlardan bankni himoyalash imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olish. Qimmatli qog'ozlarni garov ob'ekti holatidagi sifat mezonlari: oson sotilishi; emitentning moliyaviy holati. Ushbu mezonlardan kelib chiqqan holda, qimmatli qog'ozlar quyidagi marjinal qiymatda garovga olinadi: davlat qimmatli qog'ozlari – 95 foizgacha; korxonalarning aktsiyalari – 80-85%; tijorat veksellari – 75-80%.

Garov ob'ektini baholash: garov ob'ekti bozor bahosida baholanishi kerak. Ammo bank garov ob'ektini sotayotganda uning bozor bahosi o'zgarishi mumkin yoki bozor bahosida sotib oladigan xaridor topilmaydi. Natijada bank garov ob'ektini bozor bahosidan past narxda sotishga majbur bo'ladi; garov ob'ekti davriy ravishda qayta baholanib turishi lozim; garov ob'ekti qiymatini baholash tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak; garovni baholashda uni baholash va sotish xarajatlari hisobga olinishi kerak.

Ko'chmas mulkni baholash usullari: xarajat usuli; bozor usuli va daromad usuli.

Xarajat usulida er uchastkasini sotib olish va kelgusida amalga oshiriladigan qurilish xarajatlari hisobga olinadi. Bunda investor oladigan daromad miqdori ham hisobga olinadi. Aniqlangan qiymatdan eskirish summasi ayirib tashlanadi.

Bozor usulida ko'chmas (qo'zg'almas) mulkni bozorda sotilish bahosi hisobga olinadi. Lekin bunda bozor bahosiga o'zgartirishlar kiritiladi. Chunki, birinchidan, bir-biriga 100% o'xshaydigan ob'ektlar juda kam; ikkinchidan,

mulkni haqiqiy bozor bahosini faqat uni sotganda bilish mumkin.

Daromad usulida ushbu qo'zg'almas mulkni kelgusida foydalanish natijasida olinadigan sof daromad miqdori hisobga olinadi. Ushbu usuldan foydalanishda quyidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi: xuddi shunday ob'ektni ijaraga berishdan olinayotgan daromad; ob'ektni bekor turib qolishi natijasida ko'riladigan yo'qotishlar; ob'ektni boshqa maqsadda ishlatish natijasida olinadigan daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy banklari bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib borayotgan ko'plab xorijiy banklar mavjud bo'lib, ularning har birining o'z o'rnini va ahamiyati yoki moliyalashtirish shart-sharoitlari mavjud (1-ilova). Quyida ulardan ayrimlarining kredit liniyalari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi asosiy shartlari va mezonlari keltirilgan:

2.1-jadval

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy banklarning mahalliy banklarda ochilgan kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini kreditlashdagi asosiy shartlari va mezonlari²⁵

Kreditlash shartlari	AQSh Eksimbanki	KfW Germaniya banki	Commerzbank AG (Germaniya) kredit liniyasi	Koreya Eksport-import banki	Xitoy taraqqiyot Davlat banki (China Development Bank) kredit liniyasi
Kreditlarning maqsadli ishlatilishi	Kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash, import asbob-uskunalar va texnologiyalarni sotib olishni moliyalash, shuningdek, subloyihalarni moliyalash bilan bog'liq bo'lgan ishchi sarmoyasiga ketadigan xarajatlarni qisman qoplash. Ishchi sarmoyasini, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini alohida moliyalash	Import asbob-uskuna va texnologiya sotib olish	Import asbob-uskuna va texnologiya sotib olish	- asbob-uskuna sotib olish va o'rnatish; strategik investitsiyalar Koreya kapitali ishtirok etmagan kompaniya uchun; - asbob-uskuna sotish va xizmat ko'rsatish; - asbob-uskuna sotib olish	- qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda meva-sabzavotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar sotib olish maqsadida; - mahalliy xom ashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish; - qurilish materiallarini ishlab chiqarish, bunda yangi turlarini tatbiq etgan holda; - tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish; - servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.
Qarz oluvchi	O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq xususiy, kichik biznes korxonalari (xususiy sektorning nazorat ishtiroki bo'lgan qo'shma sarmoya ham bo'lishi mumkin)		Sanoat yoki qishloq xo'jaligi korxonalari	Sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalari	O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq xususiy, kichik biznes korxonalari (xususiy sektorning nazorat ishtiroki bo'lgan qo'shma sarmoya ham bo'lishi mumkin)

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Kreditlash davri	Foydalanishga topshirilgan kundan boshlab 6 oylik imtiyozli davr bilan birga ko'pi bilan 7 yil	1,5 yildan 5 yilgacha, imtiyozli davr 1,5 yil.	Kredit shartnomasida individual tarzda kelishiladi	6 yil	6 yil
Kreditning maksimal summasi	5 mln. AQSh dollari, biroq, loyiha boshlang'ich qiymatining 85 %idan oshiq bo'lmagan miqdorda	2,5 mln. Evro, biroq, loyiha boshlang'ich qiymatining 75 %idan oshiq bo'lmagan miqdorda	Maksimal - kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha.	Maksimal summa – kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha.	1 mln. AQSh dollarigacha
Kreditning minimal summasi	100 ming AQSh dollari		Minimal - 500 000 Evro	Minimal summa - 200 000,0 AQSh dollari	Kreditning miqdori 100,0 ming AQSh dollari
O'z mablag'lari (o'z sarmoyasi)	Loyiha boshlang'ich qiymatining 25 %idan kam bo'lmagan miqdorida. Buni qarz oluvchi o'z mablag'lari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan binolar, inshootlar, mashina va asbob-uskunalar, ishlab chiqarishdan oldingi davrning aylanma sarmoyasi va moliyaviy xarajatlarini qoplashga ketadigan boshqa mablag'lar ko'rinishida ta'minlashi mumkin		Loyiha qiymatining 15%dan kam bo'lmagan miqdorda	Loyiha umumiy qiymatining 25%dan kam bo'lmagan miqdorda	
Garov ta'minoti	Kredit summasining 120 %idan kam bo'lmagan miqdorda (Hukumat va uchinchi shaxslar kafolatlari, sug'urta polislari, asosiy vositalar, binolar, inshootlar (baholangan qiymatining 70 %igacha miqdorida), asbob-uskunalar (baholangan qiymatining 60-70% miqdorida))		Kredit liniya bo'yicha garov ta'minoti sifatida Eksport kredit Milliy agentligining sug'urta polisi qatnashadi, EKMA tomonidan sug'urta qiymati kredit summasining 8-12,5% tashkil qiladi		Kredit qoldig'i bo'yicha eng kamida 120% miqdorini qoplovchi Garov ta'minoti darajasini ta'minlash
Kredit uchun foizlar	-	EvroLIBORning foiz stavkasiga asoslangan foiz+ KfW marjasi+O'zbekiston Respublikasi mahalliy banki marjasi	EUROIBOR 6M + xorijiy bank marjasi (yillik 1.5-2.5%) + "Asaka" bank marjasi (yillik 4%)	Libor 6M + xorijiy bank marjasi (har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi, 2% atrofida) + "Asaka" bank marjasi (har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi)	7% foizdan 9% foizgacha, yakuniy foiz stavkasi har bir loyiha bo'yicha individual aniqlanadi
Kreditni tashkil etish uchun 1 marta to'lanadigan vositachilik haqi	Barqaror valyutadagi kredit summasining 0,1%i miqdorida	Kredit summasining 0,75%i miqdorida	Boshqaruv uchun komissiya – kredit summasining 0,50%;	Boshqaruv uchun komissiya – kredit summasining 0,1%;	yillik 0,3% miqdorida kredit qoldiq summasidan
Majburiyat uchun vositachilik haqi	-	Barqaror valyutadagi kreditning foydalanilmagan summasidan yiliga 0,25% hisobida	Majburiyat komissiyasi – yillik 0,25%	Majburiyat komissiyasi yillik - 0,3%	-

Kreditni boshqarsh uchun vositachilik haqi	To'lov kunidagi joriy kurs bo'yicha mahalliy valyutadagi kredit summasidan yiliga 0,15% hisobida	-	-	-
Kreditning to'lov muddati	Har 6 oyda (yilning 8 fevral va 8 avgust kunlari)	-	-	-

Ushbu mezonlarga xorijiy banklar kredit yo'nalishlari ayrimlari bir-biridan keskin farq qiladi, ayrim mezonlari hamma qarz oluvchilar uchun deyarli bir xil. Masalan, garov ta'minoti barcha qarz oluvchilarga deyarli 120-125 foiz miqdorida belgilangan.

Xitoy Taraqqiyot davlat bankining kredit majburiyati mablag'lari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilmoqda: meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash uchun mini-texnologiyalar va mo'ljaz jihozlarni xarid qilish; mahalliy xom ashyo chuqur qayta ishlanadigan zamonaviy, mahalliyashtirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish; qurilish materiallari ishlab chiqarish, jumladan, ularning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish; tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish; xizmat ko'rsatish va servis sohasini, shu jumladan, turizmni rivojlantirish.

2.2-jadval

Xitoy taraqqiyot bankining kredit liniya mablag'larining o'zlashtirilishi bo'yicha shartnoma shartlari²⁶

Kredit yo'nalishidan foydalanish sohasi	Kredit yo'nalishi orqali kontrakt qiymatining 85% hisobidan moliyalashtirish amalga oshiriladi. Bunda Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ulushi kamida 50%
Kredit summasi	100 ming AQSh dollaridan 1 mln. AQSh dollarigacha
Kreditlashning maksimal davri	8 yilgacha
Imtiyozli davr	2 yil (bunda faqat kredit uchun hisoblangan foizlar to'lanadi)
Foiz stavkasi	Yarim yillik LIBOR + yillik 3,8%+TIF Milliy banki marjasi (har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi)
Majburiyat uchun komissiya	Kreditning AQSh dollaridagi ishlatilmagan summasiga nisbatan yillik 0,01%
Boshqaruv komissiyasi	Kredit so'ndirilguniga qadar kredit qarzдорligining yillik 0,3% miqdorida
Kredit tashkil etilgani uchun Milliy bank vositachilik haqi	Kredit summasining yillik 0,15% miqdorida to'lov kunidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari.

	bankining kursi bo'yicha milliy valyutada
Loyihani moliyalashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi	Ushbu kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirilayotgan har bir loyiha bo'yicha qarz mablag'larining o'z mablag'lariga nisbatan munosabati etmish beshga (75:25) yigirma beshdan oshmasligi lozim
Kredit hisobidan xarid qilinadigan uskunani ishlab chiqaruvchi davlat	Xitoy
Boshqa shartlar	Kredit ta'minoti summasi kredit summasining 120%ini tashkil etishi kerak

Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Tszinlinning 2013 yil sentyabr oyida Yurtimizga tashrifi chog'ida jami qiymati 15 milliard dollar miqdoridagi loyihalarni amalga oshirishga doir 31 ta hujjat imzolandi va ushbu hujjatlar asosida Xitoydan 7,7 milliard dollarlik moliyaviy mablag'lar, shu jumladan, Xitoy kompaniyalarining 1,3 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, ushbu davlat moliya institutlarining 6,1 milliard dollar miqdoridagi kredit liniya mablag'lari va 0,3 milliard dollarlik davlat grantlarini jalb etish ko'zda tutilgan. Xullas, Xitoy taraqqiyot banki va O'zbekiston tijorat banklarining moliya-bank sohasidagi munosabatlari ushbu moliya institutining kredit liniya mablag'larini jalb etish ishlarini yanada jadallashtirish lozimligini belgilab berdi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda barcha riskli vaziyatlarning oldini olish choralari ko'rilishiga qaramay, xorijiy banklar talablariga muvofiq risklarni boshqarishning o'ziga xos talablari amal qiladi. Kredit riski bu – tijorat banki tomonidan ma'lum loyihani amalga oshirish uchun qarzdorga ma'lum muddatda qaytarish sharti bilan berilgan moliyaviy mablag'larning va ular buyicha hisoblangan foizlarning qaytmasligidir. Kredit riski qatoriga, nafaqat, kreditlash amaliyotlari, balki loyihalarni moliyalashtirish, boshqa banklarga depozitlar joylashtirish, kafilliklar berish, faktoring, lizing kabi aktiv amaliyotlar ham kiradi. Kredit riski to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yo'qotishli xatarlar turiga kiradi.

Xorijiy tijorat banklari, jumladan, Buyuk Britaniya banklari risklarni 5 toifaga ajratadilar: A toifa - kichik yoki nol risk; B toifa - oddiy risk; V toifa - oshgan risk; G toifa - katta yoki yuqori risk; D toifa - nomaqbul risk.

Xorijiy banklar amaliyotida risklarni boshkarishning o'ziga xos tizimi mavjud

bo'lib, u umumiy quyidagi tartibda amal qiladi:

1. Risklarni baholash.
2. Risklarni rejalashtirish.
3. Risklarni boshqarish.

Riskni boshqarish, eng avvalo, uning oldini olishdir. Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo'lgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur qilishi lozim. Bu uning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Bank boshqaruvi xodimlari o'z ishlarida amal qilish uchun xatarni oldini olish taktika va strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

Risk strategiyasini ishlab chiqishning muhim tarkibiy qismi xedjirlash, ya'ni riskni kamaytirish yoki uning paydo bo'lishini ogohlantirish tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Xorijiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

Qarzdorning kreditga layoqatliligini baholash. Xorij banklar amaliyotida ssuda oluvchini balli baholashga asoslangan usul juda keng tarqalgan. Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeidan kelib chiqadi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul qachonki, bank mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmasagina qo'llaniladi.

Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

Etarli ta'minotni jalb qilish. Bunday usul bankka berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan etarli ta'minotni jalb qilishiga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratiladi. Chunki ssuda kredit kelishuviga muvofiq qaytarilishi hisobga olib boriladi.

Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan

darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish minimum kreditga to'lovni olishni ta'minlaydi. Agar kredit riskidan himoyalashning boshqa usullari qo'llanilmasa, uning qaytishi to'g'risidagi savol javobsiz qolaveradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari quyidagilarga e'tibor berish ham kredit riskini kamaytirishda katta ahamiyatga molikdir. Tomonlar o'rtasida kredit munosabatlarining samarali amalga oshirilishiga ham oqilona kredit siyosati orqali erishish mumkin. Chunki kredit siyosati kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan chora va uslublarni, bank kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalarni o'zida ask ettiradi. Har bir bank o'zining kredit siyosatini mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, geografik, tashkiliy va boshqa bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqadi. Kredit siyosati bank strategiyasining ajralmas qismi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlangan maksadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Taktik jihatdan esa bu siyosat moliyaviy va boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarini amalga oshirishdagi bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini hamda kredit jarayonini tashkil qilish tartiblarini ishlab chiqishni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mezonlari va shartlari har bankning o'ziga xos xususiyatlaridan va kredit siyosatidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda kredit risklarini boshqarish har bir bank dolzarb masala hisoblanadi.


2.2. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish amaliyoti tahlili

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, tarkibiy qayta qurishning samarali amalga oshirilishi bevosita investitsiya siyosatining oqilona yuritilishi bilan bog'liq. Agrar-industrial mamlakat hisoblangan O'zbekiston uchun ham investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Xorij tajribasi ham rivojlangan mamlakatlarda dastlab

industrial tarmoqlar jadal taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Hukumat tomonidan iqtisodiyotga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirish tamoyillari ishlab chiqildi (2-ilova). Mazkur tamoyillar asosida mamlakatimizda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi ta'minlandi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish asosida, bu faoliyatlarni tartibga soluvchi qonunlar yaratildi. Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi, "Valyuta ishlarini tartibga solish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi, shuningdek xorijiy kreditlarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish uchun turli moliyaviy imtiyozlar yaratildi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotda faol amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar va modernizatsiya qilish jarayoni investitsiya faolligini yanada oshirdi. Iqtisodiyotdagi xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining²⁷ yildan-yilga sezilarli ravishda o'sib borishi milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida xorijiy investitsiya va kreditlar miqdori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi (2.2-rasm).




2.2-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar dinamikasi²⁸, mlrd. AQSh dollari hisobida

²⁷ Investitsiyalar YaIMning eng muhim va o'zgaruvchan komponentidir. Investitsiyalarni taxmin qilish juda qiyin, ular to'satdan o'sib ketishi yoki aksincha, tushib ketishi mumkin. Masalan, AQShda buyuk depressiya davrida investitsiyalar 100 % tushib ketgan.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari (www.stat.uz).

Jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, agar 2007 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014 yilga kelib 3,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi, ya'ni 2014 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar 2007 yilga nisbatan 2,7 martaga ortgan yoki 2007 yilga nisbatan 2 mlrd. AQSh dollari miqdorida ko'p xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan. Bu esa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanib, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilganligidan dalolat beradi.

Biroq, navbatdagi rasm ma'lumotlari mamlakatimizga (O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatidan kelib chiqib) xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish holati sustligini ko'rsatadi (2.3-rasm). Xususan, 2014 yilda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalar tarkibidagi ulushi 21,2 foizni tashkil qilib, 2007 yilga nisbatan 3,2 f.p.ga pasaygan, ya'ni xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish dinamikasida jami investitsiyalarning o'sish sur'atiga nisbatan pasayish tendentsiyasi kuzatiladi.




2.3-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalar tarkibidagi salmog'i, foiz hisobida²⁹

Bunday holat, o'z navbatida, xorijiy investitsiya va kreditlarni o'sish sur'atlarining jami investitsiyalarning o'sish sur'atlaridan ortda qolayotganligini ko'rsatadi va ichki investitsiyalarning faol rivojlanayotganligini tasdiqlaydi.

Xorijiy kreditlarni jalb qilish dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, 2014 yilda

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (www.stat.uz) ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

bu ko'rsatkich 0,80 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, 2007 yilga nisbatan 4 barobarga ortgan (2.4-rasm). Bu esa so'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb qilishni faollashtirishga qaratilgan huquqiy bazaning takomillashib borayotganligini ko'rsatadi.



2.4-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy kreditlarni jalb qilish dinamikasi, mlrd. AQSh dollari hisobida³⁰

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan xorijiy banklar tomonidan mahalliy tijorat banklarida ochilgan va amal qilayotgan xorijiy kredit liniyalari, asosan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashda faol qatnashmoqda. Buning, albatta, o'ziga xos sabab va ehtiyojlari mavjud bo'lib, shu omillar asosida tashkil etilayotgan va foydalanilayotgan xorijiy banklar kredit liniyalari mablag'lari milliy iqtisodiyot rivojini ta'minlashda o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Ko'plab davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, xorijiy banklarning kredit liniyalaridan samarali foydalanish raqobat sharoitida respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning garovidir. Shu bois, mamlakatimiz banklari ham xorijiy banklarning kredit liniyalarini iqtisodiyotga jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xorijiy banklarning kredit liniyalari korxonalarni moliyalashtirishning qo'shimcha manbai bo'lish barobarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, amaliyotda zamonaviy menejmentni qo'llashga ham sharoit yaratadi. Mazkur kreditlar, birinchi navbatda, ishlab

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (www.stat.uz) ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

chiqarishning ilg'or usullarini, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tabiiy boyliklarni jadal o'zlashtirish, ishchi kuchi zich joylashgan hududlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltiriladi.

Bugungi kunda respublikamiz banklari tomonidan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy taraqqiyot banki, Koreya Eksimbanki, Germaniyaning bir qator banklari bilan ularning kredit liniyalarini jalb etish borasida hamkorlik o'rnatilgan.

Xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobiga tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratishni yanada kengaytirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida tijorat banklari tomonidan 2013 yilda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlarining 145,4 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalari, 2014 yilda esa 266,8 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi.

2.3-jadval

Kichik biznes sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun 2014 yilda ajratiladigan xorijiy kredit liniyalari³¹

№	Xorijiy bank kredit liniyasi	Mahalliy tijorat banklari	Loyiha maqsadi	Kredit miqdori, ming AQSh dollari hisobida	Foiz stavkasi va kredit miqdori
1	Xitoy taraqqiyot banki 4-kredit liniyasi	Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki	– qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda meva-sabzavotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalar sotib olish; – mahalliy xomashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish; – qurilish materiallarini ishlab chiqarish, bunda yangi turlarini tatbiq etgan holda; – tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish; – servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.	35 000	Foiz stavkasi – yarim yillik LIBOR + yillik 3,8 foiz (XTDB marjasi) + O'zmilliybank marjasi. Kredit muddati 7 yil
2	Koreya eksport-import banki			10 000	Foiz stavkasi CIRR yoki LIBOR + har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadigan Koreya Eksimbanki marjasi + O'zmilliybank marjasi, har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi. Kredit muddati 7 yil
3	Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi	«Asaka» DATB	Barcha sohalaridagi loyihalarini moliyalashtirish (agrobiznes, biotexnologiyalar, ta'lim, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari va multimedia, telekommunikatsiya,	13 000	Foiz stavkasi – xorijiy bank marjasi – «Asaka» bank marjasi – 11-12 foiz. Kredit muddati 6 yil lekin kredit muddati XSRIK bilan tuzilgan


³¹ <http://www.finance.uz/index.php/uz/uzm-ekonomika> sayti ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

			transport va boshqalar), ammo: turizm va dam olish; mudofaa; ko'chmas mulk sohalari bundan mustasno.		moliyalashtirish liniyasi kelishuvi muddatidan ko'p bo'lmashligi lozim
4	Turkiya T.C. Ziraat Bankasi A.S.	«Agrobank» OATB	Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes	2 900	Foiz stavkasi – (6,5 foiz marja + 6 oylik LIBOR) x 5 foiz + 2 foiz. Kredit muddati 5 yil
5	Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi	«Mikrokredit-bank» OATB	Kichik biznesni rivojlantirish	6 000	Foiz stavkasi – AQSh dollarida: 8,0 foiz + (5 yillik svop) + bank marjasi. Kredit muddati 5 yil
6	“Kommertsbank” (Germaniya banki)	«O'zsanoat-qurilishbank» OATB	Kichik biznes sub'ektlari va sanoat tarmog'idagi korxonalarni moliyalashtirish	6 000	Foiz stavkasi – foiz stavkasi yillik EVRIBOR + chet el bankining marjasi (1,95 foiz) + bank marjasi Kredit muddati 5 yil
7	Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi	DT Xalq banki	Yangi ishlab chiqarish ob'ektini tashkil qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq joriy ishlab chiqarish majmuasini yaratish yoki mavjud quvvatlarni kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hududlarda sanoatni rivojlantirish	15 000	Foiz stavkasi – IXSRK ustamasi (9 foizdan 12 foizgacha) + Xalq banki marjasi (4 foiz dan kam bo'lmagan). Kredit muddati 5 yil
8	Osiyo taraqqiyot bankining «Kichik biznes va mikromoliyalash-ni rivojlantirish. 2-faza» loyihasi	«Hamkorbank» OATB	Kichik biznesni rivojlantirish	5 000	Foiz stavkasi – milliy valyutada yillik 18 foiz va undan yuqori; xorijiy valyutada yillik 12 foiz va undan yuqori. Kredit muddati 1 yil
9	Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi	«Ipoteka-bank» ATIB	Kichik biznesni rivojlantirish	10 000	Foiz stavkasi – 8,75 foizdan 11 foizgacha XSRIK marjasi + yillik 3 foizdan «Ipoteka-bank» ATIB marjasi. Kredit muddati 5 yil
10	Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi kredit liniyasi	«Asia Alliance Bank» OATB	Kichik biznes uchun asbob-uskuna va mexanizmlar sotib olish	3 800	Foiz stavkasi – 12 foiz va yuqori. Kredit muddati 5 yil
11	FMO fondi (Gollandiya)	«Ipak yo'li» OAITB	Kichik biznes sub'ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish	4 810	Foiz stavkasi – 6 oylik LIBOR + 7 foiz chet el banki marjasi + 4-6 foiz «Ipak yo'li» banki marjasi. Kredit muddati 5 yil
12	Landes Bank Berlin (Germaniya)		Kichik biznesning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish	3 650	Foiz stavkasi – 6 oylik Euribor + 2,5 foiz chet el banki marjasi + 4-6 foiz «Ipak yo'li» banki marjasi. Kredit muddati 7 yil

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mahalliy tijorat banklari orqali Xitoy taraqqiyot banki, Koreya eksport-import banki, Turkiya T.C. Ziraat Bankasi A.S. banki, FMO fondi (Gollandiya), Landes Bank Berlin (Germaniya) banki hamda “Kommertsbank” (Germaniya banki) kredit liniyalarini o'zlashtirishda kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi taraqqiyotini ta'minlash etakchilik qilmoqda.

Xitoy taraqqiyot bankining³² kredit liniyalari hisobidan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 135 mln. AQSh dollaridan ortiq kredit mablag'lari ajratildi. Ushbu kredit mablag'lari davlatimiz iqtisodiyotining ko'pgina sohalariga yo'naltirildi (2.5-rasm).



2.5-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan Xitoy taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar, soahalar kesimida, %da³³

Shu bilan birga, ushbu kredit mablag'larining o'zlashtirilishi bank resurs mablag'larining oshishida, bank likvidliligining yaxshilanishida, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda va natijada qo'shimcha yangi ish o'rinlarining yaratilishida asosiy omillardan biri hisoblanmoqda.

Xorijiy kredit liniyalarining o'zlashtirilishi samarasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi misollarni aytishimiz mumkin: Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan «Yasham-Erkaplan» qo'shma korxona tomonidan Belgiyaning «Michel Van de Wiele» kompaniyasining gilam ishlab chiqarish texnologiyasini, Germaniyaning «Xetma Vollenweider» kompaniyasining gilamga ishlov beruvchi

³² Xitoy taraqqiyot bankini faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dissertatsiyaning 3-ilovasida keltirilgan.

³³ www.cdb.com – Annual Report 2013.

uskunolari sotib olish uchun 2013 yilda Germaniyaning KfV banki liniyasidan 229 ming evro, Kommertsbank liniyasidan 819 ming evro miqdorida kreditlar ajratildi. Mazkur kreditlar hisobiga olingan uskunalar gilam ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha zamonaviyligi, energiya tejamkorligi, ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ushbu uskunalarda ishlab chiqarilayotgan gilam mahsulotlari sifati zamon va jahon bozoridagi talablarga to'liq javob beradi. Mazkur loyihani amalga oshirish evaziga korxonaning ishlab chiqarish quvvati 36 foizga oshdi, qo'shimcha 10 ta yangi ish o'rni tashkil etildi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan «Inter biznes atlantik» mas'uliyati cheklangan jamiyatga Turkiyaning «Markev makine muxendeslik» va «Tam matbakilik ve ambalai san» kompaniyalarining shokolad ishlab chiqarish asbob-uskunalarini sotib olish uchun 2013 yilda Germaniyaning KfV banki liniyasidan 168,1 ming evro miqdorida kredit ajratilgan edi. Ushbu uskunalarda ishlab chiqarilayotgan shokolad mahsulotlarining sifati jahon standartlariga va iste'molchilar talablariga to'liq javob beradi. Yangi texnologiyalar o'ta zamonaviy, energiyani tejimli sarflaydi, ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi yuqori. Mazkur loyihani amalga oshirish evaziga korxonaning ishlab chiqarish quvvati 30 foiz oshdi, qo'shimcha 6 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Toshkent viloyatidagi «Navro'z interneyshnl grup» mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxona Germaniyaning «Landes Bank Berlin AG» kredit liniyasidan 2 860 ming evro miqdorida mablag' evaziga «Krones AG» kompaniyasining salqin ichimliklar ishlab chiqarish uskunalarini sotib oldi va faoliyat ko'rsata boshladi. Loyiha amalga oshirilgach, korxonada yiliga 306 mln. dona shisha salqin ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, qo'shimcha 99 ta yangi ish o'rni tashkil etildi. 2013 yil yakunlariga ko'ra, mazkur korxona tomonidan 28 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va to'liq sotildi.

«Hamkorbank» ATB³⁴ so'nggi 10 yil mobaynida xalqaro moliya institutlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini olib borib, iqtisodiyotimizning istiqbolli

³⁴ 2015 yildan boshlab «Hamkorbank»ning to'liq nomlanishi yangi maqomga ko'ra, Xorijiy kapital ishtirokidagi «Hamkorbank» aktsiyadorlik-tijorat banki bo'ldi.

tarmoqlarini faol moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Gollandiya taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, Osiyo taraqqiyot banki, Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi va boshqa moliyaviy institutlar shular jumlasidandir.

Bankning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligining asosiy maqsadi mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarni yaratishdan iboratdir.

«Ipak yo'li» aktsiyadorlik innovatsiya tijorat banki ham xalqaro munosabatlarini kengaytirib bormoqda. Muassasaning Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD), «LandesBank Berlin AG», Niderlandiya taraqqiyot banki (FMO) kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari o'z samarasini berib bormoqda. Xususan, «Ipak yo'li» AITBning Germaniya taraqqiyot banki (KfW) bilan hamkorligi natijasida so'nggi yillarda 4 ta transh va 3 ta qayta moliyalash kredit liniyalari to'liq o'zlashtirildi. Hozirgi kunda mazkur bank tomonidan KfW kredit liniyasining to'rtinchi transhi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ta'kidlash joiz, bank KfW bilan hamkorlik aloqalari olib borib, shu bugungi kungacha 25,76 mln. evro miqdoridagi jami 114 ta loyihani moliyalashtirdi, mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratishga erishdi. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy ishlab chiqarish vositalarini qayta jihozlash va modernizatsiyalashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadi o'rta tashlandi.

O'zbekiston bank tizimining asosiy hamkorlari orasida: Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtiruvchi guruhining mamlakatlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya va boshqa davlatlarning hukumatlari bor bo'lib, ular tomonidan o'tgan yillar davomida iqtisodiyotning kichik biznes va xususiy sektorini moliyalashtirish uchun 1,5 mlrd. AQSh dollaridan ortiq kredit resurslari ajratilgan.

2015 yilning 1 yanvar holatiga mahalliy banklar tomonidan xorijiy banklar kredit liniyalarining o'zlashtirilishi³⁵

№	Xorijiy banklar kredit liniyasi	Mahalliy tijorat banklari	Kredit miqdori	Loyihalari soni, ta	Loyiha maqsadlari
1	Xitoy Davlat Taraqqiyot banki	Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki	254 ming AQSh dollari	12	Davlat dasturlariga kiruvchi strategik loyihalarni amalga oshirish
2	Gollandiya taraqqiyot banki	Hamkorbank	13 mln AQSh dollari	21	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning dolzarb bo'lgan sohalari rivojiga yo'naltirilgan
3	Germaniya taraqqiyot banki (KfW)	Ipak yo'li banki	25,76 mln. Evro	114	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy ishlab chiqarish vositalarini qayta jihozlash va modernizatsiyalashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish
4	Niderlandiya taraqqiyot banki	Ipak yo'li banki	13 mln. AQSh dollari	16	Tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya loyihasini moliyalashtirish

Keyingi vaqtlarda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larini o'zlashtirish doirasida tijorat banklari faoliyatida investitsiyaviy loyihalar bilan ishlashning «loyihaviy moliyalashtirish» degan nom olgan tubdan yangi shakli tobora keng ommalashmoqda. Binobarin, kreditlash turli tarmoqlar bo'yicha amalga oshirilmoqda, qarz mablag'lari esa ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada taqdim etiladi. Bunda import asbob-uskunalar va texnologiyalari xaridlarini moliyalashtirish; ishlab chiqarishni kengaytirish (asosan engil va oziq-ovqat sanoati sohasida); ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va ularga birlamchi ishlov berish; asosiy vositalarni, shu jumladan, mashina va asbob-uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, furniturani

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari hamda <http://www.finance.uz/index.php/uz/uzm-ekonomika> sayti ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

xarid qilish; hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilikni tashkil etish; turizm, servis xizmati va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa, qishloq joylarda ularni rivojlantirish loyihalari amalga oshiriladi.

Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning dastlabki bosqichida xorijiy banklarning maqsadli kredit liniyalari ma'lum darajada engil sanoatning butun bir tarmog'i vujudga kelishi va tezkor rivojlanishiga, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilishiga turtki bo'ldi, bunga esa o'z navbatida, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Italiya, Shveytsariya va boshqa davlatlardan keltirilgan ilg'or zamonaviy texnologiyalar va tikuv asbob-uskunalari hisobidan amalga oshirildi, desak mubolag'a bo'lmas. Natijada ayni vaqtda mahalliy xom ashyo asosida tayyorlangan yuqori sifatli o'zimizning tayyor to'qimachilik mahsulotlarimiz xalqaro standartlarga to'liq javob beradi hamda xorijiy bozorlarda katta talabga egadir. Masalan, muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotgan loyihalar qatorida energiya sarfini tejovchi lampalar, kombinatsiyalangan fotoelektrik stantsiyalar, tabiiy gazni biomassadan, ya'ni qishloq xo'jaligi chiqindilari va qayta ishlangan mahsulotlardan olishga mo'ljallangan biogazli qurilmalar, quyosh suv isitgich uskunalari, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va avtomobilsozlik uchun turli xil butlovchi buyumlar va materiallar, dori vositalarining yangi turlari va shu singari boshqa innovatsion turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalar bor.

Shu bilan birga, bank tizimini rivojlantirishda asosiy dasturiy hujjat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qarori bilan 2011 yildan 2015 yilgacha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari hamda grantlarini faol tarzda jalb etish va o'zlashtirish quyidagi summalardan kam bo'lmagan tarzda nazarda tutilgan: 2011 yilda – 75 mln. AQSh dollari, 2012 yilda

– 90 mln. AQSh dollari, 2013 yilda – 110 mln. AQSh dollari, 2014 yilda – 130 mln. AQSh dollari, 2015 yilda – 155 mln. AQSh dollari.

Kichik biznesning rivojlanishi uchun maksimal darajadagi qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganiga kreditlashning tegishli ko'rsatkichlari ham yorqin dalildir. Chunonchi, mamlakat bank tizimi resurs bazasining o'sishi, o'z navbatida, kredit qo'yilmalari oshishini ta'minlaydi. Masalan, kichik biznesga 2009-2013 yillarda berilgan kreditlarning umumiy hajmi 3,8 martaga oshgan. Bunda tadqiqotlarning ko'rsatishicha, so'nggi 5 yilda xorijiy banklar kredit liniyalari va xorijiy banklarning hisobidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga umumiy qiymatda 625,2 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar yo'naltirildi. Istiqbolda ham bank tizimini mustahkamlash va rivojlantirish, bank xizmatlari turini kengaytirish, iqtisodiyotning real sektori va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmini, shu jumladan, xorijiy banklari mablag'lari hisobidan ko'paytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Hozirgi vaqtda ularning kredit liniyalarini, grantlarini va texnik yordam vositalarini jalb etish maqsadida mamlakatimiz tijorat banklari Jahon banki (XTTB, XRA, XMK), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (XSRIK), Xitoy Davlat taraqqiyot banki (XDTB), Koreya eksport-import banki (Eksimbank), Gollandiya banki (FMO), Germaniyaning bir qator banklari (KfV, Kommertsbank, Landesbank) va boshqalar bilan hamkorlikni faol mustahkamlamoqda. Bundan tashqari, Xalq banki va «Mikrokreditbank» tomonidan Germaniya Xalqaro hamkorlik bo'yicha jamg'arma kassalari fondi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 2012-2013 yillar davomida Xalq banki va «Mikrokreditbank» Germaniya Xalqaro hamkorlik bo'yicha jamg'arma kassalari fondi tomonidan beriladigan kichik biznesni mikrokreditlashning yangilanadigan kredit jamg'armasi hisobidan boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun tadbirkor ayollarga 525,0 ming evro ekvivalentida kredit mablag'lari ajratildi.

2014 yil mobaynida kichik biznes sub'ektlarining investitsiyaviy loyihalarini jalb etilgan xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni yanada kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar doirasida respublikaning tijorat banklari tomonidan 129,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi kreditlar ajratildi, shu jumladan: Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi liniyasi bo'yicha 34,8 mln. AQSh dollari ajratildi; Osiyo taraqqiyot bankining «Kichik va mikromoliyalashtirishni rivojlantirish. III faza» loyihasini amalga oshirish doirasida 24,9 mln. AQSh dollari ajratildi; Xitoy Davlat taraqqiyot bankining liniyasi bo'yicha 31,2 mln. AQSh dollari ajratildi; Germaniya banklarining (KfV, Kommertsbank, Landesbank) kredit liniyalari doirasida 8,8 mln. AQSh dollari ajratildi.

Umuman olganda, bugungi kunga kelib respublikamizda xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti birmuncha rivojlangan bo'lib, buni amalda erishilayotgan yutuqlar va uning statistik ko'rsatkichlari yaqqol tasdiqlaydi. Biroq, bugungi mavjud imkoniyat va ehtiyojlar ular hajmini yanada oshirish mumkinligi va zarurligini ko'rsatmoqda. Shu sababdan O'zbekiston davlatining xorijiy banklar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir va bu yo'nalishda tegishli chora-tadbirlarni ko'rib chiqish va amalga oshirish lozim.

Bizning fikrimizcha, istiqbolida banklar tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

– jalb etilayogan xorijiy kreditlarni mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni eng avvalo tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;

– xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go'sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag'larni o'zlashtirishiga har tomonlama ko'maklashish;

– xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo'sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e'tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish;

– mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo'lgan tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish.

2.3. «Interer-kroup» investitsiya loyihacining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili

Biz dissertatsiya ishida «Interer-kroup» qo'shma (O'zbek-Xitoy) korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini tahlil qildik. Korxona Xitoy firmasining uskunasi sotib olish yo'li bilan mebel mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish ko'zda tutilgan. Korxonada ishchilar soni 20 kishini tashkil etadi. Loyihani amalga oshirish uchun (uskunani etkazib berish bo'yicha shartnoma qiymatini 100 foiz to'lash uchun) 4 yil muddatga imtiyozli davrni (12 oy) qo'shgan holda 170000 AQSh dollari hajmidagi kredit olinishi va loyiha bo'yicha 20 ta yangi ish o'rinlari ochish mo'ljallangan.

«Interer-kroup» loyihasi O'zbekiston bozorining turli xil mebel mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan. Qarz oluvchi ushbu bozorda 2005 yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi va bu vaqt mobaynida o'zining

buyurtmachilar doirasini shakllantirgan. Tayyor mahsulotning 30 foizi eksportga mo'ljallangan, ya'ni bevosita buyurtmachilar vositachiligida sotiladi.

2.5-jadval

«Interer-kroup» loyihasi bo'yicha kreditni taqdim etish shartlari³⁶

Qarz oluvchi	«Interer-kroup» qo'shma korxonasi
Kreditning maqsadli ishlatilishi	Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik uskunasi sotib olish
Loyiha qiymati	200000 AQSh dollari
Kredit so'mmasi	170000 AQSh dollari
Kreditni taqdim etish davri	12 oy imtiyozli davrni qo'shgan holda 4 yil
Foiz stavkasi	Xitoy taraqqiyot banki foiz stavkasi + Milliy bank marjasi
Kredit ta'minoti	Sotib olinayotgan uskuna, «Interer-kroup» qo'shma korxonasining asosiy vositalari va «O'zbekinvest» sug'urta agentligining sug'urta polisi. Jami kredit summasining 120 foiz miqdorida

Loyihada Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki texnologik uskunani dasturli ta'minoti bilan birga etkazib berish bo'yicha shartnoma qiymatini 100 foiz to'lash uchun O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi Xitoy taraqqiyot banki kredit liniyasidan 170000 AQSh doll. hajmidagi kredit taqdim qiluvchi kreditor hisoblanadi.

2.6-jadval

Loyihani amalga oshirishda qarz oluvchining o'z mablag'i va Milliy bank kreditining taqsimlanishi³⁷

№	«Interer-kroup» qo'shma korxonasi		
	Xarajatlar moddasi	Summa	Manba
1	Qurilish ishlari va hududni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	3000 AQSh doll.	Qarz oluvchining o'z mablag'lari
2	Ijara to'lovi, 1 yilga	4000 AQSh doll.	
3	Amaldagi uskuna	10000 AQSh doll.	
4	Sotib olinayotgan dastur ta'minoti	3000 AQSh doll.	
5	Ishchi kapitali	2000 AQSh doll.	
6	Moliyaviy xarajatlar	3000 AQSh doll.	
7	Kutilmagan xarajatlarga zahira hajmi	5000 AQSh doll.	
	Jami	30000	
Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (Xitoy taraqqiyot banki krediti)			
1	Uskuna	160000 AQSh doll.	Kredit
2	Ehtiyot qismlar	10000 AQSh doll.	
	Jami	170000	

³⁶ Jadval ma'lumotlari «Interer-kroup» loyihasining biznes-rejasidan olindi.

³⁷ Jadval ma'lumotlari «Interer-kroup» loyihasining biznes-rejasidan olindi.

Investitsiya loyihalarini baholashda qoplash muddati usuli (PP), diskontlangan qoplash muddati (DPP), investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi yoki investitsiyalarning o'rtacha foyda me'yori (ARR), sof joriy qiymat (NPV), foydaning ichki me'yori (IRR) va investitsiyalarning rentabelligi (PI) ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. «Interer-kroup» loyihasining samaradorligini baholashda ushbu ko'rsatkichlarni hisoblashdagi ma'lumotlar loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi ko'rsatkichlaridan olindi (2.7-jadval).

2.7-jadval

«Interer-kroup» loyihasining pul oqimi tahlili³⁸

№	Ko'rsatkichlar	0 y.	1 y.	2 y.	3 y.	4 y.
1	Jami sotish hajmi		150541	168671	168720	168720
2	Sotishdan tushgan tushum	(21178)	184865	194850	199133	199088
3	Yalpu tushum (A)	(21178)	110320	98196	102419	102373
4	Davr xarajatlari	-	7508	9249	9250	9250
5	O'z mablag'lari	30000	-	-	-	-
6	Investitsiya	(200000)	-	-	-	-
7	Soliqlar (S)	-	13549	15180	15185	15185
8	Moliyaviy xarajatlar	(4500)	-	-	-	-
9	Kutilmagan xarajatlar	(5500)				
10	Sof foyda	(170000)	98935	162315	169482	180137
11	Amortizatsiya (D)		37000	45000	50000	65000
12	Moliyaviy ehtiyojlar	170000	-	-	-	-
13	Pul oqimi	-	23935	7315	12482	5317
14	O'sib boruvchi pul oqimi	-	23935	31250	43732	48869

Pul mablag'larini qoplash muddati usuli (PP) investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning muhim ko'rsatkichlaridandir. Chunki yirik pul kapitaliga ega bo'lmagan tadbirkor uchun investitsiya qilgan mablag'larining tezda qaytishi o'ta muhimdir. Shuning uchun tadbirkorlar investitsiyalash masalasida, birinchi navbatda, qo'yilmalarning qaytish muddatini baholashga qiziqadilar va mazkur usul bir muncha ommabop hisoblanadi. Bu usul loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslanadi. Ushbu usulni hisob-kitob qilish natijasi «Interer-kroup» loyihasining qoplash muddati 2,8 yilga tengligini ko'rsatdi.

Pul mablag'larini qoplash muddati usuli investitsiyalar foydaliligini mezoni sifatida jiddiy kamchiliklarga ega: qoplash davri tugagandan keyingi olinadigan

³⁸ Jadval ma'lumotlari «Interer-kroup» loyihasining biznes-rejasidan olindi.

pul mablag'lari foydaliligini hamda kelgusi davrdagi pul tushumlari qiymatini hisobga olmaydi. Ushbu kamchiliklardan holi bo'lish uchun investitsiyalar samaradorligini hisoblashning barcha asosiy ko'rsatkichlari diskontlash usullarini qo'llash orqali hisoblanadi. Shu bois, ko'p hollarda, diskontlangan qoplash muddati usuli (DPP) qo'llaniladi. DPP usulini hisoblash jarayonida yillik pul tushumlari boshlang'ich davrga keltiriladi:

$$DPP = I_0 / CF,$$

Bu erda: CF – diskontlangan pul tushumlari summasi.

Biz tahlil qilayotgan «Interer-kroup» loyihasi bo'yicha $DPP = 3$ yilga teng.

Tadbirkorlar uchun investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi yoki investitsiyalarning o'rtacha foyda me'yori usulini (ARR) hisoblash ham muhim sanaladi. Chunki bu ko'rsatkich tadbirkorga yiliga har bir investitsiyalangan mablag'idan qancha mablag' olishini anglatadi. Shuningdek, tadbirkorlarga investitsiyalangan kapital bilan xarajatlar foydaliligini baholashni taqqoslashga imkon beradi. Bu ko'rsatkich buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanishga asoslanadi. U quyidagicha aniqlanadi: buning uchun, avvalo, investitsiyalarning amortizatsiya me'yorini hisoblash lozim:

$$A_M = IB_K - K_K / L_M,$$

Bu erda: A_M – amortizatsiya me'yori; BI_s – boshlang'ich investitsiyalar summasi; Qq – qoldiq qiymat; L_M – loyiha muddati.

Bunda investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$ARR = PT_Y - A / IX,$$

Bu erda: ARR – investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi; PT_Y – yillik pul tushumlari; A – amortizatsiya; IX – investitsion xarajatlar.

Tahlil qilinayotgan «Interer-kroup» loyihasi bo'yicha investitsiyalarning o'rtacha foyda me'yori 22,5 foizga teng.

Ushbu ko'rsatkichning afzalliklari quyidagilar hisoblanadi: hisob-kitobning sodda va tushunarlilik; loyiha foydaliligini aks ettirishi; loyihani butun hayotiylik davrini aks ettirishi. Kamchiligi esa kelgusi pul tushumlari qiymatini hisobga olmasligidadir.

Loyihalarni baholashdagi NPV usuli kelgusida kutilayotgan pul oqimlarining joriy qiymatidir. U yillik real pullar tushumi va chiqimi orasidagi farqning diskontlash yo'li bilan (doimiy foiz stavkasida va har bir yil uchun alohida) olingan miqdor sifatida aniqlanadi. Firma u yoki bu investitsiyalar foydaliligini aniqlash uchun investitsiyalardan kutilayotgan kelgusi daromadlarning keltirilgan qiymatini hisoblashi va uni investitsiyalar hajmi bilan taqqoslashi lozim. Mana shu sof joriy qiymatning mezoni hisoblanadi, ya'ni investitsiya qiling, agar investitsiyadan kutilayotgan daromadlarning keltirilgan qiymati investitsiyalar summasidan katta bo'lsa. NPV usuli investitsiya bahosining pul ko'rinishini ifodalaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$NPV = F / (1+R)^1 + F / (1+R)^2 + \dots + F/(1+R)^n - BI_s,$$

Bu erda: NPV – sof joriy qiymat; F – foyda; R – diskont stavkasi; n - davr; BI_s – boshlang'ich investitsiyalar summasi.

Agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyihani moliyalashtirishga qabul qilish mumkin, $NPV = 0$ holatda loyiha samara ham keltirmaydi, zarali ham bo'lmaydi, agar $NPV < 0$ bo'lsa, unda loyihani moliyalashtirishga qabul qilmaslik kerak (loyiha samarasiz bo'ladi).

«Interer-kroup» loyihasi bo'yicha NPV quyidagiga teng:

$$NPV^8 = 98935 / (1+0,15)^1 + 162315 / (1+0,15)^2 + 169482 / (1+0,15)^3 + 180137 / (1+0,15)^4 - 200000 = 265925,5 - 200000 = 65925,5 \text{ AQSh dollari.}$$

NPV usulining kamchiligi diskont me'yorini tanlashning murakkabligi va u loyihaning to'la-to'kis hamda aniq foydaliligini ko'rsatib bera olmasligidadir. Shu sabab, kapitalga foyda me'yori kategoriyalarini qo'llashga o'rgangan tabdirkorlar daromadning ichki me'yori usulini (IRR) qo'llaydilar. ARR usuli loyiha bo'yicha sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga teng bo'lgandagi va $NPV = 0$ bo'lgandagi diskont me'yori. ARR – keltirilgan samara keltirilgan kapital qo'yilmalarga teng bo'lgandagi diskont me'yorini ifodalaydi. Umumiy holda (kapital aralash bo'lganda) diskont me'yorini kapital tarkibi, soliq tizimi va boshqalarni inobatga olib hisoblangan – kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati sifatida topish mumkin. Bu ko'rsatkich korxonada

investitsiya loyihasiga qo'yilgan kapitalning qaytish mexanizmini, uning rentabelligini ko'rsatib beradi.

ARR usuli miqdorining aniq hisob-kitobini faqatgina kompyuter dasturlari yordamida echish mumkin.

«Investitsiya qarorlarining samaradorligini baholashda investitsiyalar rentabelligi (PI) ko'rsatkichi keng qo'llaniladi»³⁹. PI ko'rsatkichi keltirilgan samara summasining kapital qo'yilmalar miqdoriga nisbatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich qanday holatda korxona boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Uni quyidagicha hisoblaymiz:

$$PI = 98935 / (1+0,15)^1 + 162315 / (1+0,15)^2 + 169482 / (1+0,15)^3 + 180137 / (1+0,15)^4 / 200000 = 1,3.$$

Biz tahlil qilayotgan «Interer-kroup» loyihasining investitsiyalar rentabelligi 1,3 ga teng, bu esa loyihaning rentabelligini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, NPV>0 bo'lgandagina PI o'sadi va ARR talab etiladigan daromad me'yoridan yuqori bo'ladi va shundagina loyiha bo'yicha maqbul qaror qabul qilish mumkin bo'ladi. Xullas, investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash va baholash ishlari muhim vazifa bo'lib, uni xolisona baholash tadbirkor uchun ham, tijorat banki uchun foydalidir, qolaversa, loyiha texnik-iqtisodiy asosnomasining pishiq-puxta tahlil etilishi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining garovidir.

Ikkinchi bob bo'yicha qisqa xulosalar:

– xorijiy kreditlarni mamlakat iqtisodiyotiga turli shakllarda jalb qilish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy kreditlar xorijiy banklarning kredit liniyalari shaklida kirib kelmoqda. Respublikamizda kredit liniyalari Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (ETTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB), Germaniyaning Rivojlanish kredit agentligi (KfW), Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) va xorijiy davlatlarning ko'plab banklari tomonidan ochilib, ularning asosiy maqsadi tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kichik biznes loyixalarini

³⁹ Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2000. – Стр. 153-154.

moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratishdir. Har bir kredit liniyasining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qabul qilishi uchun asosiy mezonlar va shartlari mavjud;

– 2014 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar 2007 yilga nisbatan 2,7 martaga ortgan yoki 2007 yilga nisbatan 2 mlrd. AQSh dollari miqdorida ko'p xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan. Bu esa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanib, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga mamlakatimizga (O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatidan kelib chiqib) xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish holatining sustligini ham ko'rsatadi, ya'ni 2014 yilda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalar tarkibidagi ulushi 21,2 foizni tashkil qilib, 2007 yilga nisbatan 3,2 f.p.ga pasaygan, bunday holat, o'z navbatida, xorijiy investitsiya va kreditlarni o'sish sur'atlarining jami investitsiyalarning o'sish sur'atlaridan ortda qolayotganligini va ichki investitsiyalarning faol rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy tahlili va ularni baholash, loyihani moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirish, investitsiya loyihasini monitoringini tashkil etish va kreditni foizlari bilan qaytarib olishda bir qator muammolar ham mavjud;

– xorijiy banklarning kredit liniyalari korxonalarni moliyalashtirishning qo'shimcha manbai bo'lish barobarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, amaliyotda zamonaviy menejmentni qo'llashga ham sharoit yaratadi. Mazkur kreditlar, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning ilg'or usullarini, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tabiiy boyliklarni jadal o'zlashtirish, ishchi kuchi zich joylashgan hududlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltiriladi;

– mahalliy tijorat banklari orqali Xitoy taraqqiyot banki, Koreya eksport-import banki, Turkiya T.C. Ziraat Bankasi A.S. banki, FMO fondi (Gollandiya), Landes Bank Berlin (Germaniya) banki hamda "Kommertsbank" (Germaniya

banki) kredit liniyalarini o'zlashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi taraqqiyotini ta'minlash etakchilik qilmoqda.

– keyingi vaqtlarda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larini o'zlashtirish doirasida tijorat banklari faoliyatida investitsiyaviy loyihalar bilan ishlashning “loyihaviy moliyalashtirish” degan nom olgan yangi shakli tobora keng ommalashmoqda. Binobarin, kreditlash turli tarmoqlar bo'yicha amalga oshirilmoqda, qarz mablag'lari esa ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada taqdim etiladi. Bunda import asbob-uskunolari va texnologiyalari xaridlarini moliyalashtirish; ishlab chiqarishni kengaytirish (asosan engil va oziq-ovqat sanoati sohasida); ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va ularga birlamchi ishlov berish; asosiy vositalarni, shu jumladan, mashina va asbob-uskunalar, mehnat qurollari, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, furniturani xarid qilish; hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilikni tashkil etish; turizm, servis xizmati va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa, qishloq joylarda ularni rivojlantirish loyihalari amalga oshiriladi;

– xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish – bu mamlakatdagi banklarning xorijiy banklardan mablag'larni jalb etish bilan bir paytning o'zida bu jarayonga oid barcha mas'uliyat va xavf-xatarlarni o'z zimmasiga olib, ularni milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga samarali joylashtirish va uni nazorat qilishdan, shuningdek mavjud qarzдорlikni o'z vaqtida qaytarish majburiyatlaridan iboratdir;

– tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalari moliyalashtirilganda ba'zi bir xususiyatlar e'tiborga olinishi lozim. O'zbekistonda, odatda, bankdan so'raladigan kredit summasining miqdori qarz oluvchining xususiy mablag'lariga nisbatan ancha balanddir (ko'pincha qarz mablag'lari – 75%, xususiy mablag'lar – 25%). Xuddi shu o'rinda, G'arb tajribasiga ko'ra, talab qilinayotgan investitsiyalarning hajmi xususiy kapitalning 10-20% ini tashkil etishi kerak. G'arb dunyosi uchun qarz oluvchini loyihani amalga oshirishda xususiy kapital ulushining balandroq bo'lishi odatiy holdir. Bizda esa, shunday holatlar bo'ladiki, qarz oluvchi investitsiya loyihalari uchun moliyalashtirish manbalarini so'rab,

bunda o'z mablag'larini yo'naltirishga umuman harakat ham qilmaydi. Shuning uchun investitsiya loyihalariga nisbatan "qattiq" (mahalliy qarz oluvchining nuqtai nazaridan qaraganda) talablarning qo'yilishi, umuman olganda, to'g'ri bo'lib chiqadi. Chunki kredit berish xavfining o'zi yuqori, investitsiya loyihalarining moliyalashtirish xavfi esa – yanada yuqoridir.

III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARNI XORIJIY BANKLAR KREDIT LINIYALARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish jarayonidagi muammolar

Bugungi kunda investitsiya loyihalarini xorijiy banklarning kreditlari hisobiga moliyalashtirish borasida bir qator muammolar borki, bu muammolar yillar o'tgani sayin chuqurlashib o'z echimini topishi qiyinlashib bormoqda. Bunday muammolar qatoriga xorijiy valyutalarni erkin ayriboshlash, xorijiy valyutalarning milliy valyutamizga nisbatan qadrining keskin ko'tarilib ketishi va aksincha milliy valyutaning qadri juda pastlab ketishi va boshqa bir qator muammolarni kiritishimiz mumkin. Xususan, 2014 yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan ayriboshlash kursi 10 foizga pasayib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, bir AQSh dollari 2422,4 so'mni tashkil qildi. So'mning almashuv kursi Xitoy yuaniga nisbatan 7,2 foizga, funt sterlingga nisbatan 4,0 foizga, Koreya voniga nisbatan 5,7 foizga va Turkiya lirasiga nisbatan 2,1 foizga pasaydi⁴⁰. Mamlakatimizda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda, xolos.

Hozirgi paytda respublikamizda investitsiya loyihalarini, jumladan, kichik biznes investitsiya loyihalarini xorijiy banklarning kreditlari hisobiga moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni bir nechta guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Ushbu guruhlar o'z ichiga moliyaviy, texnikaviy, siyosiy, tashkiliy va bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qamrab oladi.

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasidagi mamlakatimizda qabul qilingan qonun va boshqa me'yoriy xujjatlarning amaliyotga to'liq tatbiq etilmasligi, ayrim qonun-qoidalarining bir-birini inkor etishi kabi muammolar. Ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, jumladan, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

⁴⁰ <http://cbu.uz>.

uchun eng avval mana shu sohalarning huquqiy asoslarini etarli darajada ta'minlash zarur bo'ladi.

2. Mamlakatda pul-kredit siyosatidagi bir qator o'z echimini kutayotgan muammolar bor. Bu erda birinchi navbatda mamlakatda xorijiy valyutalarning erkin ayriboshlanishi tizimiga o'tishning amalga oshirilmayotganligi, shuningdek, milliy valyuta – so'mning qadri nihoyat darajada pasayib ketayotganligini aytib o'tish joizdir. Bundan tashqari, mamlakatda pulning qadrsizlanishi darajasi yuqoriligi saqlanib kolmoqda. Shu sababli, bugungi kunga kelib respublika tijorat banklari tomonidan xorijiy banklarning kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining aksariyat qismida loyihalarining valyutaviy qoplanishi muammosi, olingan kreditni valyutada qaytarish muammosi, shuningdek moliyalashtirayotgan davrdagi hisob-kitoblarning bugungi kun baholari bilan taqqoslab bo'lmaslik muammolari, ushbu loyihalarining o'z-o'zini qoplamasligiga, asosiy qarzni qaytarish muddatining o'tib ketishiga, oxir-oqibat bank kredit portfelida muddati o'tgan qarzdorliklarning ko'payib ketishiga, bank likvidligining pasayishiga olib kelmoqda.

3. Banklarda turli hil investitsiya loyihalarini xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali moliyalashtirishning mexanizmi va ularning o'ziga xos shartlari bilan bog'liq muammolar bo'lib, bu muammolar bevosita loyihalarni moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida kichik biznes sub'ektlarini ularning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali qo'llab-quvvatlash uchun ochilgan xorijiy banklar kredit liniyalarinig asosiy talablaridan biri – bu qarzdorning o'z mablag'lari loyiha boshlang'ich qiymatining kamida 25 foizini tashkil etishi lozimligidir. O'ylab qaraydigan bo'lsak, hamma qarz oluvchi kichik biznes sub'ektlari ham bunday salohiyatga ega emas, ya'ni ularning mol-mulki xorijiy valyutada loyiha boshlang'ich qiymatining 10 foiziga ham etib bormasligi mumkin. Bundan tashqari olinayotgan kredit bo'yicha garov ta'minoti kredit summasining 120-125 foizini tashkil etishi lozim. Bu muammo ham yuqoridagi muammo singari hal etilishi qiyin bo'lgan muammo hisoblanadi. Bugungi kunda ko'pchilik banklar, uchinchi

shaxslar, shuningdek, sug'urta kompaniyalari qarzdor uchun katta summadagi kredit uchun kafil bo'lib chiqmaydi. Chunki bugungi kundagi iqtisodiy holat kafil bo'lib chiqish uchun mos emas. Chunki, garovni mol-mulk shaklida qoplay olmagan qarzdor uchun uchinchi shaxs kafolatini olish va bu ishlar bilan bog'liq mexanizm hali to'liq shakllanmagan. Bundan tashqari kafil bo'lib chiqa oladigan har tomonlama barqaror va bank talablariga javob bera oladigan korxona yoki tashkilotlar mamlakatimizda u qadar ko'p emas. Shu kabi muammolardan yana biri – bu bank tomonidan investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish va moliyalashtirishni boshlashgacha bo'lgan vaqtning uzoq davom etishidir, ya'ni bankka taqdim etilgan loyihalar 3-4 oylab ko'rib chiqiladi. Bunga sabab esa, loyiha bo'yicha bankka taqdim etilgan xujjatlarning to'liq emasligi yoki asoslanmaganligidir. Bu esa birinchidan loyiha bo'yicha qilingan hisob-kitoblarning, marketing tadqiqotlarining eskirishiga, shuningdek, mavsumiy xarakterga ega bo'lgan loyihalar samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

4. Mamlakatda investitsiya bozori va unga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlarining rivojlanmaganligi hamda takomillashmaganligi bilan bog'liq muammolar bo'lib, bular qatoriga respublikadagi pul-sarmoyalar bozori, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori kabilarning to'la shakllanmaganligi, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning rivojlanmaganligi kabilarni kiritishimiz mumkin. Investitsiya loyihalarini asoslash uchun texnik-iqtisodiy asoslashni tayyorlash loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etishning asosiy bosqichlaridan biridir. Lekin respublikamizda keyingi paytlarda loyihalarni moliyalashtirishning asosiy muammolaridan biri bu texnik-iqtisodiy asoslashni sifatli tayyorlash va asoslash bilan bog'liq bo'lib qoldi. Chunki banklardan loyiha texnik-iqtisodiy asoslari asoslanmaganligi uchun qaytarilib yuborilmoqda. Loyihani tayyorlashga ixtisoslashgan mavjud loyihalashtirish institutlari faoliyatining takomillashmaganligi tuzilayotgan loyihaning sifatsiz va to'la asoslanmaganligiga, buning oqibatida loyihalarni moliyalashtirishning muddati cho'zilib ketishiga, tadbirkorlarning loyiha oldi izlanishlariga ko'p vaqt va mablag' sarflashlariga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari bu guruh muammolariga

marketing va axborot xizmatlarining rivojlanmaganligi, mamlakatda statistik ma'lumotlarni olishning qiyinligi kabilar ham kiradi. Shunday muammolarning mavjudligi, birinchidan, eng samarali loyiha g'oyalarini topishdagi muammolarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash ishlarining puxta va aniq ishlanmasligiga olib keladi.

5. Bu guruh muammolariga mamlakatga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning muqobil variantlaridan foydalanishning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va shu soha bilan bog'liq muammolarni kiritish mumkin. Mamlakatimizda investitsiyalashning muqobil varianti bo'lmish lizingdan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Respublikamizda keyingi yillarda lizing va uning usullaridan keng foydalanish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin bu boradagi ishlarining ko'lami talab darajasida emas. Xususan, 2014 yilning yakuniy natijalariga muvofiq, asosiy sarmoyadagi investitsiyalar tarkibida lizinglar ulushi 2,5 foizni tashkil qildi. Lizingning YaIMdagi ulushi biroz kamayib, 2013 yilda ushbu ulush 0,7 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 0,6 foizga tushib qoldi⁴¹. Bu boradagi muammolarni hal etish uchun birinchi navbatda bu sohaning huquqiy asosini takomillashtirish, bu sohada faoliyat yuritadigan moliyaviy institutlarning faoliyatini rivojlantirish, lizing xizmatlarini ko'rsatish uchun xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur bo'ladi. Zero investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing eng samarali usul hisoblanadi.

Ushbu guruhga tegishli bo'lgan muammolardan yana biri bu investitsiya siyosatida bevosita investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor berilmayotganligidir. Albatta bu erda respublikamizdagi mavjud investitsiya iqlimi va uni talab darajasida shakllantirishga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita sabablar borligini inobatga olish zarur, lekin bevosita investitsiyalarni jalb etishning shunday yo'llari va usullari ham mavjud bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish o'zining bir qator afzalliklarini yaqqol ko'rsatadi. Shunday usullardan biri sinditsiyalashgan kreditlashni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi. Bugungi kunda

⁴¹ www.ula.uz sayti materiallari.

xorijiy banklarning kredit liniyalarini mamlakat tijorat banklarining o'zi qarzdor sifatida jalb etmoqda va shu bilan birga barcha mas'uliyat va xavf-xatarni o'z zimmlariga olmoqdalar. Sinditsiyalashgan kreditlashni rivojlantirish birinchi navbatda xorijiy banklarning respublika iqtisodiyotining turli sektor va sohalariga bevosita kirib kelishini ta'minlashi bilan birga, milliy tijorat banklarning xavf-xatarlarini kamaytiradi, shuningdek, xorijiy hamkorlar tomonidan milliy iqtisodiyotning hali ochilmagan qirralarinig ochilishi va rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Buning uchun esa birinchi navbatda sinditsiyalashgan kreditlash mexanizmi va uning xuquqiy bazasini takomillashtirish lozim bo'ladi.

6. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari faoliyatining takomillashmaganligi, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus tashkilotlar faoliyatining talab darajasida emasligi va boshqalarni kiritish mumkin. Bugungi kunda loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarning eng dolzarbi bu talab qilinayotgan kredit ta'minotining mavjud emasligidir, ya'ni qarzdor olayotgan krediti uchun ta'minot topa olmayotganligidir. Bu muammoni hal etish maqsadida sug'urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin bugungi kunda mamlakatimizdagi sug'urta tashkilotlarining ko'pchiligi valyutaviy kreditning qaytmasligidan sug'urtalash amaliyoti bilan shug'ullanmaydi.

7. Jalb qilinayotgan xorijiy banklarning kredit liniyalarining iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga, shuningdek, xududlararo yo'nalishi bilan bog'liq muammolardan iborat. Bizningcha mamlakat aholisining ko'pchilik qismi qishloq joylarda yashashligini hamda respublikada qishloq xo'jaligining asosiy soha ekanligini hisobga olib, ushbu sohaga ham bevosita xorijiy investitsiyalar hamda xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb etish mexanizmini takomillashtirish zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida sanoatlashmagan xududlarda ham iqtisodiy o'sishning yuzaga kelishiga va bu joylarda ham sanoatning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Yuqorida biz sanab o'tgan muammolar bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Mamlakat investitsiya siyosati va investitsiya

iqlimida mana shunday muammolarning mavjudligi mamlakatga chet el investitsiyalari, shuningdek, xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb etishda samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. O'ylaymizki bunday muammolarning o'z vaqtida va samarali tarzda hal etilishi mamlakat iqtisodiyotining tezroq rivojlanishiga, yanada barqarorlashuviga olib keladi.

3.2. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xorijiy banklarning kredit liniyalari xozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotining soha va tamoqlaridagi investitsiya loyihalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning eng maqbul usuli bu bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etishdir. Bugungi kunda respublikamizga bunday investitsiyalarni jalb etish borasida bir qator muammolarning mavjudligi, ular o'rniga hukumat kafolati ostidagi chet el qarzlari va xorijiy banklarning kreditlarini jalb etishni taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash zarur ekan bu sohani rivojlantirish va takomillashtirish lozim bo'ladi. Chunki iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish albatta, mamlakatning tezroq rivojlanishi hamda barqarorlashuviga olib keladi va uning istiqbolini yuksaltiradi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi masalalarda O'zbekistonda xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqamiz:

Investitsiya muhitining takomillashib borishi. Har bir davlatning investitsiya sharoiti uning siyosiy va iqtisodiy barqarorligidan kelib chiqadi va bu investitsiya muhitini vujudga keltiradi. Xorijiy banklar bilan hamkorlikning rivojlanishi mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xorijiy banklar bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatga bo'lgan ishonch va qiziqishni orttiradi. Investitsiya muhitini yaxshilaydigan omillarga

quyidagilar kiradi: investitsiyalardan foydalanishda soliq, bojxona imtiyozlarini kengaytirish, pulning qadrsizlanishi darajasini pasaytirish, milliy valyutaning erkin almashinuvini ta'minlash, chet el investorlarining o'z daromadlarini olib chiqib ketishini to'la kafolatlash, axborot almashinuvi darajasini oshirish, hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirish, infratuzilma institutlari faoliyatini takomillashtirish, investitsiya siyosati samaradorligini oshirish va boshqalar. Mamlakatga xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklar kredit liniyalarining kirib kelishi shu hududdagi investitsiya siyosatning huquqiy asoslarini takomillashtiradi. Chunki bunday munosabatlarda tomonlarning o'zaro manfaatlari to'qnashadi va bu ularning o'zaro murosaga kelishiga olib keladi hamda bunday murosalar xalqaro darajadagi huquqiy xujjatlar orqali belgilanadi va tartibga solinadi. Bunday munosabatlarning davomiyligi tez fursatlar ichida mamlakatda investitsiya faoliyatining samarali huquqiy va iqtisodiy asosini ta'minlaydi.

Makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi. Hozirgi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari asosan mamlakatga zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalarni keltirishga va shu asosda jahon bozorlari standartlariga mos keladigan, ichki bozor talablarini qondiradigan va eksportga yo'naltiriladigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda. Bunday ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi, nafaqat, mahsulot ishlab chiqarish orqali mamlakat ishlab chiqarish va eksport salohiyatining rivojlanishiga, balki yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi orqali ishsizlik muammosining hal etilishiga, korxonalarining rivojlanishiga, aholi daromadlarining ko'tarilishiga, davlat byudjeti daromadlarining oshishiga, mamlakat ichki bozorining turli xil tovarlar bilan ta'minlanishiga, mahsulot eksporti orqali valyuta tushumlarining ko'payishiga, mahalliy xom ashyoning to'liq qayta ishlab chiqarishga yo'naltirilishiga, iqtisodiyotda raqobat, talab va taklif, narx-navo kabi bozor mexanizmlarining amal qilishiga, xullas makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga olib keladi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklarning kredit liniyalari

mablag'lari asosan iqtisodiyotning kimyo, neft va gaz, elektr-energiya, og'ir va engil sanoat, mashinasozlik, xom ashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish, qayta ishlash, kichik tadbirkorlik sohaslariga yo'naltirilmoqda. Bu esa mamlakatning agrar iqtisodiyotdan asta-sekin industrilashgan iqtisodiyot sari o'tib borayotganligidan dalolat beradi. Mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadigan soha va tarmoqlarning bir vaqtning o'zida baravar rivojlantirilayotganligi bu sohada strategik rejalar va dasturlarning mavjudligidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, aholining ko'p qismi qishloq joylarda yashashligini inobatga olib, hukumatimiz tomonidan sanoatni qishloqqa olib kirish, qishloq joylarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarda tub islohotlarni amalga oshirish ishlari ham olib borilmoqda. Iqtisodiyotning bir sohasining rivojlanishi ikkinchi bir sohaning ham rivojlanishini talab qilishini inobatga olib aytish mumkinki, sanoatning rivojlanishi albatta qishloq xo'jaligining ham rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatda investitsiya muhitining takomillashib borishi, xorijiy investitsiyalarning hamda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi albatta investitsiyalarni boshqarishni, ularni baholash usullarining takomillashuvini, ularning eng samarali manbalarini izlab topishni va joylashtirishni, yangiliklarni amaliyotga tatbiq qilishni, shu bilan bir qatorda ushbu soha rivojlanishiga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlarning o'z-o'zidan rivojlanishini taqozo qiladi. Albatta bunday ishlar boshida davlat turadi va u bunday o'zgarishlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini ta'minlaydi. Bunday o'zgarishlar natijasida investitsiyalarning muqobil usuli bo'lmish lizing munosabatlari, kredit uyushmalari, nobank kreditlash muassasalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari va fondlari kabilar faoliyati rivojlanib va takomillashib boradi. Xorijiy banklar bilan hamkorlikning rivojlanib borgani sari xorijiy hamkorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishi va ishonchi ortib borishini biz yuqorida ta'kidlagan edik. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy banklarning kredit liniyalarini hukumat kafolatisiz, unchalik murakkab bo'lmagan shartlar asosida, uzoq muddatlarga, kichik foiz stavkalarida o'zlashtirish imkoniyatini berish bilan

bir qatorda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi yirik investitsiya loyihalarini sindikatlashgan shaklda kreditlash imkoniyatini ham oshiradi. Sindikatlashgan kreditlashning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular qatoriga katta-katta loyihalarni moliyalashtirishning imkoni paydo bo'lishini, mahalliy banklar risklarining kamayishini, banklarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda bevosita qatnashishini, mamlakatga xorijiy kreditlar bilan bir qatorda bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini kiritish mumkin. Bundan tashqari bunday investitsiyalarning kirib kelishi mamlakatda innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishiga olib keladi. Bu esa respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatini rag'batlantiradi va ularni ham rivojlanishga undaydi.

Xullas, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining milliy iqtisodiyotga jalb qilinishi iqtisodiyotning birmuncha yangi va rivojlanmagan tarmoqlarining ham rivojlanishiga olib keladi. Bugungi kunda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larini yanada kengroq jalb etish va samaraliroq joylashtirish uchun bizningcha quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

Birinchi, qulay investitsiya muhitini yaratishning asosiy shartlaridan bo'lgan investitsion faoliyat, investitsiya jarayonlari va xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq qonunchilikni isloh qilish lozim, ya'ni ularning amal qilish jarayonlarini hayotga tatbiq etish lozim. Bunday ishlar jumlasiga sindikatlashgan kreditlar bo'yicha va lizing munosabatlari, shuningdek, xorijiy investorlar va ularning huquqlarini himoya qilish, xorijiy banklar bilan xamkorlikni rivojlantirish bo'yicha mavjud qonunchilikni va me'yoriy xujjatlarni qayta ko'rib chiqish masalalari ham kiradi.

Ikkinchi, mamlakatda pul-kredit barqarorligi va samaradorligini ta'minlash lozim. Bunday ishlar jumlasiga milliy valyuta qadrini ko'tarish, xorijiy valyutalarning erkin ayriboshlanishini ta'minlash kabilar kiradi. Bu kabi tadbirlarning tezroq hal etilishi davlatning bu boradagi ishlarga o'z vaqtida e'tibor berishi va imkon qadar tezroq samarali va oqilona siyosat yuritishiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, xorijiy banklar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali respublikamizga jalb qilinayotgan xorijiy banklarning kredit liniyalarining kreditlash shartlarini engillashtirishga erishish lozim. Ya'ni bu borada xorijiy banklarning marjalarini kamaytirish, imtiyozli davrni uzaytirish, xorijiy sug'urta kompaniyalari sug'urta kafolati ostida kirib kelayotgan liniyalar bo'yicha sug'urta mukofoti summasini kamaytirish, bir martalik komissiya va shunga o'xshash shartlarni qisqartirishga erishish lozim. Buning uchun esa xorijiy banklarning ishonchini oqlash, ularning mablag'larini o'z vaqtida qaytarishni kafolatlash, shuningdek, ularning bilvosita daromadlarini oshirish yo'llarini ta'minlash lozim.

To'rtinchidan, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda garov ta'minotini ta'minlash maqsadida qarz oluvchi sub'ektlarga kafil bo'ladigan, kreditning qaytmasligidan sug'urtalaydigan sug'urta tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish lozim. Chunki kreditlash shartlaridagi 120-125 foizli garov ta'minotini kamaytirib bo'lmasligini hisobga olib garov ta'minoti berishi mumkin bo'lgan sug'urta kompaniyalari, fondlar kabi yangi garov shakllarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, mamlakatda barcha sohalar bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi, marketing tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi, axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga erishish lozim. Chunki bugungi kunga kelib investitsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda marketing va axborot ishlari talab darajasida emasligi oqibatida bir qator muammolar paydo bo'lmoqda.

Oltinchidan, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bevosita chet el investitsiyalarining katta afzalliklari mavjudligini hisobga olib, ularining O'zbekistonda yangidan amalga oshirilayotgan loyihalarga va qo'shma korxonalarga kirib kelishini har tomonlama rag'batlantirish lozim. Chet el investitsiyalarini va xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb etish bo'yicha uzoq muddatli maqsadli dasturlar asosida iqtisodiyotning sermehnat tarmoqlariga, ilmtalab va kapitaltalab sektorlariga kengroq va samarali jalb etish maqsadga

muvofiqdir. Bundan tashqari, davlat investitsiya dasturi orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida davlat investitsiya dasturini ishlab chiqishda bevosita xorijiy investitsiyalar hamda hukumat kafolatisiz kirib kelayotgan xorijiy banklar resurslari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha risklarni minimallashtirish masalalarini har tomonlama o'rganish zarur va bu jarayonlarga ham chuqur marketing tadqiqotlarini tatbiq etish lozim.

Uchinchi bob bo'yicha qisqa xulosalar:

– O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, investitsiya loyihalarini turli xil manbalar evaziga moliyalashtirishda investitsiyalarning muqobil variantlaridan ya'ni lizing, sindikatlashgan kreditlash kabi shakllardan unchalik e'tibor berilmayotir. Bu esa mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayotganlikni ko'rsatadi;

– keyingi yillarda mamlakatimizga chetdan jalb qilinayotgan investitsion resurslar tuzilmasida chet el kreditlari, jumladan, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Lekin, bizningcha, bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini sezilarli darajada o'stirishga erishish masalasi, ko'proq, ahamiyatlidir;

– xorijiy kredit liniyalarning jalb qilinishining yana bir qulay shakli bu bank tizimini yanada rivojlantirish. Xorijiy banklarning respublikamizda filiallarini ochishni rag'batlantirish, tijorat banklarimizni jahondagi etakchi banklar qatoridan joy olishiga harakat qilish lozim;

– mamlakatda investitsiya bozori va unga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlari faoliyatini takomillashtirish lozim. Buning uchun esa, avvalo, ushbu institutlarning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy jarayonlarini ta'minlash lozim. Ayniqsa, loyihaviy moliyalashtirish bilan bog'liq loyihalashtirish, bozor holatlarini o'rganish, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni tahlil qiluvchi tadbirkorlarga turli xil konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi, investitsiya faoliyatiga ko'maklashuvchi institutlarning faoliyatini takomillashtirish juda zarur. Shuni ham taklif qilishimiz

mumkinki, respublikada ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini, pul-sarmoyalar bozorini, ko'char va ko'chmas mulklar bozorini, intellektual ne'matlar bozori kabilar faoliyatini takomillashtirish lozim. Bundan tashqari, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslash ishlarini olib boruvchi hamda hisobotlarni tuzuvchi, aniq investitsion qarorlar bo'yicha izlanishlar olib boruvchi, loyihalarni moliyalashtirishning turli xil bosqichlarida puxta marketing ishlarini olib boruvchi, konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi institutlarning faoliyatini kengaytirish va takomillashtirish lozim;

– investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu qarz oluvchi korxonaning o'rnatilgan miqdordagi kredit ta'minotini qoplay olmasligi muammosidir. Bu muammoni hal etish uchun, avvalo, respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini zamonaviylashtirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni kamaytirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari kichik biznes sub'ektlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit ta'minotini qoplash uchun maxsus fondlarni tashkil etish lozim;

– yuqoridagi muammoning mantiqiy davomi sifatida shuni ham ta'kidlash lozimki, kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan hukumat kafolatini kamaytirish lozim, chunki hukumat kafolati ostida berilayotgan kreditlarning ko'pchilik qismi o'zini oqlamasligi holatlari kuzatilmoqda, shuningdek, kreditlar qaytmagan hollarda tijorat banklari ushbu summani hukumatdan undirib olishlari qiyin kechmoqda. Bu holat banklarning kredit portfeli sifatiga, aktivlarining holatiga va banklarning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun hukumat tomonidan kreditlar uchun ta'minotchi bo'la oladigan maxsus fondlarni tuzish va takomillashtirish, mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam ko'rsatish, o'zi garov bo'lib chiqishdan ko'ra samaraliroqdir;

– milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy

jihatlarining ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallashuvi va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham mamlakatga xorijiy investitsiyalar hamda xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb qilishni takomillashtirish uchun iqtisodiyotning har bir soha va tarmoqlarida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish hamda ushbu islohotlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qilishiga erishmoq lozim.

XULOSA

Mazkur mavzuga bag'ishlangan dissertatsiya ishi bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

– mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni tubdan isloh qilish va uni barqarorlashtirishda, respublikada mavjud korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashda va ularni modernizatsiyalashda, jahon talablari darajasidagi raqobatbardosh milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etishda, mamlakat ichki bozorini sifatli tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda uning eksport salohiyatini oshirishda, mamlakatda ishsizlik, pulning qadrsizlanishi darajalarini pasaytirishda, iqtisodiyotning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talablarini qondirishda xorijiy banklarning roli va ahamiyati kattadir;

– ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik-iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabilarga asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks xujjatlar yig'indisiga investitsiya loyihasi deyiladi. Investitsiya loyihalari qaysi sohada ishlab chiqilmasin, uning maqsadi resurslarning cheklanganligi yoki taqchilligi sharoitida ham barcha investitsiya imkoniyatlarini qidirib topish va ulardan to'liq va samarali foydalanishning optimal variantlarini aniqlashga qaratilgan bo'ladi;

– iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash investitsiya faoliyati yuritilishining zaruriy investitsion muhitini yaratishni va uni tobora qulaylashtirib borishni talab etadi, investitsiya loyihasining amalga oshirilish hajmi, miqdori va dinamikasiga qarab mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi hamda holatini baholash mumkin va o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning bajarilish holati belgilangan maqsadlarni ta'minlanishiga qanchalik mos kelayotganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin;

– xorijiy banklar yoki xorijiy davlatning banki deganda xorijiy davlatga tegishli banklar tushuniladi. Xorijiy davlatning banki xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan va u joylashgan hamda ro'yxatga olingan joydagi bank nazorati organi tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bankdir;

– xorijiy banklarning kredit liniyalari mablagʻlari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish – bu mamlakatdagi banklarning xorijiy banklardan mablagʻlarni jalb etish bilan bir paytning oʻzida bu jarayonga oid barcha masʼuliyat va xavf-xatarlarni oʻz zimmasiga olib, ularni milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga samarali joylashtirish va uni nazorat qilishdan, shuningdek mavjud qarzdorlikni oʻz vaqtida qaytarish majburiyatlaridan iboratdir;

– 2014 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar 2007 yilga nisbatan 2,7 martaga ortgan yoki 2007 yilga nisbatan 2 mlrd. AQSh dollari miqdorida koʻp xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan. Bu esa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanib, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilganligidan dalolat beradi. Biroq, mamlakatimizga (Oʻzbekistonning investitsiyaviy salohiyatidan kelib chiqib) xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish holati sustligini koʻrsatadi, yaʼni 2014 yilda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalar tarkibidagi ulushi 21,2 foizni tashkil qilib, 2007 yilga nisbatan 3,2 f.p.ga pasaygan, bunday holat, oʻz navbatida, xorijiy investitsiya va kreditlarni oʻsish surʼatlarining investitsiyalarning oʻsish surʼatlaridan ortda qolayotganligini va ichki investitsiyalarning faol rivojlanayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga investitsiya loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy tahlili va ularni baholash, loyixani moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirish, investitsiya loyixasini monitoringini tashkil etish va kreditni foizlari bilan qaytarib olishda bir qator muammolar mavjudligini ham koʻrsatadi;

– xorijiy banklarning kredit liniyalari korxonalarni moliyalashtirishning qoʻshimcha manbai boʻlish barobarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, amaliyotda zamonaviy menejmentni qoʻllashga ham sharoit yaratadi. Mazkur kreditlar, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning ilgʻor usullarini, import oʻrnini bosuvchi va eksportga yoʻnaltirilgan tovarlarni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish, tabiiy boyliklarni jadal oʻzlashtirish, ishchi kuchi zich joylashgan hududlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yoʻnaltiriladi;

– mahalliy tijorat banklari orqali Xitoy taraqqiyot banki, Koreya eksport-import banki, Turkiya T.C. Ziraat Bankasi A.S. banki, FMO fondi (Gollandiya), Landes Bank Berlin (Germaniya) banki hamda “Kommertsbank” (Germaniya banki) kredit liniyalarini o’zlashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi taraqqiyotini ta’minlash etakchilik qilmoqda;

– keyingi vaqtlarda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag’larini o’zlashtirish doirasida tijorat banklari faoliyatida investitsiyaviy loyihalar bilan ishlashning «loyihaviy moliyalashtirish» degan nom olgan tubdan yangi shakli tobora keng ommalashmoqda. Binobarin, kreditlash turli tarmoqlar bo’yicha amalga oshirilmoqda, qarz mablag’lari esa ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada taqdim etiladi. Bunda import asbob-uskunalar va texnologiyalari xaridlarini moliyalashtirish; ishlab chiqarishni kengaytirish (asosan engil va oziq-ovqat sanoati sohasida); ham qishloq xo’jaligi mahsulotlarini tayyorlash va ularga birlamchi ishlov berish; asosiy vositalarni, shu jumladan, mashina va asbob-uskunalar, mehnat qurollari, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, furniturani xarid qilish; hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilikni tashkil etish; turizm, servis xizmati va aholiga maishiy xizmat ko’rsatish, ayniqsa, qishloq joylarda ularni rivojlantirish loyihalari amalga oshiriladi.

– xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag’lari hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish – bu mamlakatdagi banklarning xorijiy banklardan mablag’larni jalb etish bilan bir paytning o’zida bu jarayonga oid barcha mas’uliyat va xavf-xatarlarni o’z zimmasiga olib, ularni milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga samarali joylashtirish va uni nazorat qilishdan, shuningdek mavjud qarzдорlikni o’z vaqtida qaytarish majburiyatlaridan iboratdir.

Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Investitsiya loyihalarini xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida: 1) garov ta’minoti muammosini ijobiy hal etish lozim; 2) xorijiy banklar kreditlari hisobiga sotib olinayotgan

uskunaning kafolatini olish zarur; 3) xorijiy bank to'g'risidagi ma'lumotlarni erkin olish tizimini rivojlantirish va bu to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xorijiy banklarning kreditlash shart-sharoitlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berib borilishi maqsadga muvofiqdir; 4) xorijiy banklar kredit liniyalarini faol jalb qilish maqsadida mamlakatdagi investitsion muhit jozibadorligini oshirish lozim; 5) pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalanish lozim.

2. Xorijiy banklar kredit liniyalarini jalb qilishda asosiy e'tiborni mablag'larni mamlakat hududlari bo'yicha mutanosib taqsimlanishiga qaratish zarur.

3. Xorijiy banklar kredit liniyalariga mahalliy banklar tomonidan xizmat ko'rsatilishini inobatga olib, mahalliy tijorat banklarining ustav kapitalini oshirib borish va uning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash kerak.

4. Xorijiy banklar kredit liniyalarini yuqori texnologiyalarga asoslangan, zamonaviy asbob-uskunalar, murakkab texnikalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga yo'naltirish lozim. Albatta, bu sohalar kam foyda keltirsada kelajakda O'zbekistonning yuksak darajada industrlashgan mamlakatga aylanishini ta'minlaydi.

5. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu qarz oluvchi korxonaning o'rnatilgan miqdordagi kredit ta'minotini qoplay olmasligi muammosidir. Bu muammoni hal etish uchun, avvalo, respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini zamonaviylashtirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni kamaytirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari kichik biznes sub'ektlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit ta'minotini qoplash uchun maxsus fondlarni tashkil etish lozim.

6. Yuqoridagi muammoning mantiqiy davomi sifatida shuni ham ta'kidlash lozimki, kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan hukumat kafolatini kamaytirish lozim, chunki hukumat kafolati ostida berilayotgan kreditlarning ko'pchilik qismi o'zini oqlamasligi holatlari kuzatilmoqda, shuningdek, kreditlar

qaytmagan hollarda tijorat banklari ushbu summani hukumatdan undirib olishlari qiyin kechmoqda. Bu holat banklarning kredit portfeli sifatiga, aktivlarining holatiga va banklarning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun hukumat tomonidan kreditlar uchun ta'minotchi bo'la oladigan maxsus fondlarni tuzish va takomillashtirish, mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish zarur.

7. Kichik biznes sub'ektlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda mamlakat eksport salohiyatini oshiradigan, mahalliy mineral xom ashyo resurslaridan foydalanishga asoslangan loyihalarni tanlab olish, xalqaro marketing va konsalting xizmatlari markazini, shuningdek, mahsulotlar sotiladigan bozorlar bo'yicha marketing-axborot tizimini tashkil etish, lizingdan foydalanishni kengaytirish va minitexnika va miniuskunalar lizingini faol joriy qilish, banklarda kichik biznes investitsiya loyihalarini tuzish va asoslash bilan shug'ullanadigan maxsus bo'limlarni tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. “Xorijdan mablag’ jalb qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 29 avgust.
2. «Chet el investitsiyalari to’grisida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
3. «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’grisida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
4. “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. 2014 yil 9 dekabr, O’RQ–380-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar

Mahkamasining qarorlari

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi «O’zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» PF-4609-son Farmoni.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to’grisida»gi Qarori, 15 aprel 2005 yil. – №56.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi PQ-554-sonli «Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o’tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Qarori.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 avgustdagi “Xitoy Taraqiyot davlat bankining kreditidan foydalanish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-927-sonli Qarori.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 avgustdagi “Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag’larini jalb etgan holda O’zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 11 martdagi "Germaniya "KFV" Taraqqiyot banki mablag'larini jalb etgan holda moliya sektorini qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'grisida»gi Qarori, 21 dekabr 2010 yil. PQ-1442.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 28 yanvardagi "Germaniyaning "KFV" taraqqiyot bankining kredit liniyasidan foydalanish to'g'risida"gi Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 14 iyundagi "Xorijiy kreditlar o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 10 fevraldagi "Islom taraqqiyot banki bilan xamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 65-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 apreldagi "Xitoy Xalq Respublikasi hukumati bilan moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 avgustdagi "Istiqbolli investitsiya takliflarini kelishish mexanizmini hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 16 iyuldagi 15/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan 613-sonli "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 22 noyabrdagi 685-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

20. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995. – 256 b.

21. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – B. 57.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar, №11.

IV. Asosiy adabiyotlar

23. Angelidi M.S., Karimov N.G. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish. – T.: «TMI», 2005. – 96 b.

24. Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редакции Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том, 2-часть, 1995. – 456 с.

25. Бузова И.А., Махавикова Г.А., Терехова В.В. Коммерческая оценка инвестиций / под ред. Есипова В.Е. – СПб.: «Питер», 2004. – 326 с.

26. Бизнес-план инвестиционного проекта: Отечественный и зарубежный опыт. Современная практика и документация: Учеб. пособие. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – 432 с.

27. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2000. – 286 с.

28. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – 160 с.

29. Благодатин А.А., Лозовский Л.Ш., Райсберг Б.А. Финансовый словарь. – М.: «ИНФРА-М», 2002. – 96 с.

30. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / Mual.:

A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov. – T.: «Sharq», 2003. – 456 b.

31. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – 380 b.

32. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: «Noshir», 2011. – 900 b.

33. Вахрин П.И., Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: «Дашков и К», 2005. – 286 с.

34. Инвестиции: учебник/ кол. авторов; под ред. Г.П. Подшиваленко. – М.: «КНОРУС», 2008. – 496 с.

35. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник. – М.: «ЮНИТИ», 2007. – 413 с.

36. Игошина Л.Л. Инвестиции. Уч. пос. – М.: «Экономист», 2005. – 256 с.

37. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – 144 с.

38. Крущвиц Л. Инвестиционные расчеты. – СПб.: «Питер», 2001. – 432 с.

39. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: Учеб. пособие. – М.: «ИНФРА-М», 2010. – 204 с.

40. Кольтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. – 432 с.

41. Колтынюк Б.А. Инвестиции. Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.». 2003. – 848 с.

42. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов. – М.: «Экономика», 2001. – 450 с.

43. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya nazariyasi. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: «Sharq», 2010. – 382 b.

44. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 607 b.

45. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К⁰», 2006. – 372 с.

46. Rashidov O.Yu. va boshq. Pul, kredit va banklar: Darslik. – T.: «TDIU», 2008. – 432 b.

47. Ример М.И. и др. Экономическая оценка инвестиций. 2-е изд. – СПб.: «Питер», 2007. – 480 с.
48. Староверова Г.С. и др. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: «КНОРУС», 2006. – 312 с.
49. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001. – 267 с.
50. Ткаченко И.Ю. Инвестиции : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / И. Ю. Ткаченко, Н. И. Малых. – М.: «Академия», 2009. – 240 с.
51. Ромаш В. М., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. Учеб. пос. – Минск: «КНИЖНИЙ ДОМ», 2004. – 160 с.
52. Jo'raev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muass. uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2003. – 225 b.
53. Черняк В.З. Управление инвестиционным проектом в строительстве. – М.: «Русская Деловая Литература», 2007. – 800 с.
54. Шарп У., Г.Александр, Дж. Бейли. Инвестиции. Пер. с англ. – М.: «ИНФРА», 1997. – 979 с.
55. Шевцова Е. Методология оценки и управление инвестиционными рисками. – СПб: «Питер», 2007. – 180 с.
56. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – 332 b.
57. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – Toshkent. 2002., i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati.
58. G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 96 b.
59. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции: учебное пособие/ Э.С.Хазанович. 2-е изд. – М.: «КНОРУС», 2011. – 312 с.
60. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. – 208 b.
61. Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. – 158 с.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

62. Abdullaeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2005. – 585 b.

63. Волков И.М., Грачева М.В. Проектный анализ: Учебник для вузов. – М.: «Банки и биржи, ЮНИТИ», 1998. – 423 с.

VI. Davriy nashlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

64. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlar hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: Statistik to'plam. – T.: «O'zbekiston». 2011.

65. «Interer-kroup» loyihasi.

66. «Аналитический обзор банковского сектора Узбекистана по итогам 2014 года» подготовленный Рейтинговым агентством «Ahbor-Reyting» при активном содействии коммерческих банков.

VII. Internet saytlari:

- www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi);
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
- www.mfer.uz (O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi);
- www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi);
- www.lex.uz; (O'zbekiston Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
- www.cbu.uz (Markaziy bank);
- http://stock.rbc.ru/help/indic/beta_desc.htm;
- www.cdb.com - Annual Report 2013;
- <http://www.finance.uz/index.php/uz/uzm-ekonomika>;
- www.ula.uz sayti materiallari.

ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan jalb qilingan Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi kredit liniyasi to’g’risida ma’lumot

Xorijiy kredit liniyasi hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga kredit ajratish to’g’risida ma’lumot	
Kredit liniyasi mablag’larining yo’naltirish sohasi	Qishloq xo’jaligi
Kredit liniyasi mablag’larining yo’naltirish maqsadi	Qishloq xo’jaligini rivojlantirish uchun asosiy vositalar va xom-ashyo sotib olish
Har bir loyiha bo’yicha ajratiladigan kreditning maksimal summasi	Investitsiya maqsadlari uchun - 300 000,0 AQSh dollari Aylanma mablag’lar uchun – 50 000,0 AQSh dollari
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati	Aylanma mablag’larni to’ldirish uchun – 18 oygacha; Investitsiya maqsadlari uchun – 120 oy (10 yil) gacha
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to’lanadigan yillik foiz to’lovlari	yillik LIBOR (6 oylik)+2%
Loyiha bo’yicha beriladigan imtiyozli davr	Aylanma mablag’larni to’ldirish uchun – 6 oygacha; Investitsiya maqsadlari uchun – 36 oy (3 yil) gacha
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to’laydigan komissiyalari	-
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	25%
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Chegaralanmagan
Boshqa shartlar (<i>ushbu jadvalda ko’zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko’rsatiladi</i>)	Mazkur kredit liniyasi hisobidan kreditlar faqat Andijon, Buxoro, Farg’ona, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari (shahar markazlaridan tashqari)da faoliyat ko’rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladi

ATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan jalb qilingan Xususiy Sektorni rivojlantirish bo’yicha Islom Korporatsiyasi moliyalashtirish liniyasi to’g’risida ma’lumot

Xorijiy kredit liniyasi hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini moliyalashtirish to’g’risida ma’lumot	
Moliyalashtirish liniyasi mablag’larining yo’naltirish sohasi	Kichik biznesni qo’llab-quvvatlash
Moliyalashtirish liniyasi mablag’larining yo’naltirish maqsadi	Kichik biznesni moliyaviy qo’llab-quvvatlash
Moliyalashtiriladigan har bir loyihaning minimal va maksimal summasi	100 000,0 AQSh dollaridan 2 000 000 AQSh dollarigacha
Moliyalashtiriladigan loyihaning maksimal muddati	5 yilgacha
Moliyalashtirilgan loyiha bo’yicha mijoz tomonidan to’lanadigan ustama to’lovlari	12 %
Loyiha bo’yicha beriladigan imtiyozli davr	6 oygacha
Bank tomonidan taqdim etilgan bank kafolati uchun mijoz tomonidan to’lanadigan komission to’lov	1 %
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	- yangidan ishga tushiriladigan loyihalarda - 50 % - ishlab chiqarishni kengaytirishni nazarda tutuvchi loyihalarda - 60%
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Isroil davlatidan tashqari barcha mamlakatlar
Boshqa shartlar (<i>ushbu jadvalda ko’zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko’rsatiladi</i>)	Turizm, mudofaa va ko’chmas mulk bilan bog’liq loyihalardan tashqari barcha sohalarni moliyalashtirish ko’zda tutilgan. Bitim qoidalariga asosan kichik biznes sub’ektlarining asosiy faoliyati islom shariati qoidalariga zid kelmasligi lozim. Bunda yuqorida ko’rsatilgan korxonalar spirtli ichimliklar, cho’chqa go’shti, shariatda ta’qiqlangan iste’mol maxsulotlari, tungi klub va fahsh kinolar faoliyati bilan shug’ullanmasligi lozim

**«Asaka» bankda Commerzbank AG (Germaniya) kredit liniyasi bo'yicha
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Sanoat yoki qishloq xo'jaligi
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Import asbob-uskuna va texnologiya sotib olish
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning maksimal summasi	Kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Minimal - 500 000 Evro, Maksimal - kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha.
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	EUROIBOR 6M + xorijiy bank marjasi (yillik 1.5-2.5%) + "Asaka" bank marjasi (yillik 4%)
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan krediting maksimal muddati	Kredit shartnomasida individual tarzda kelishiladi
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	12 oygacha
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari	Boshqaruv uchun komissiya – kredit summasining 1%; Majburiyat komissiyasi – yillik 0,25%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	1) Loyiha qiymatining 15%dan kam bo'lmagan miqdorda
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a'zosi
Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi)	Kredit liniya bo'yicha garov ta'minoti sifatida Eksport kredit Milliy agentligining sug'urta polisi qatnashadi, EKMA tomonidan sug'urta qiymati kredit summasining 8-12,5% tashkil qiladi

**«Asaka» bankda LANDESBANK AG (Germaniya) kredit liniyasi bo'yicha
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Sanoat yoki qishloq xo'jaligi.
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Yangi ishlab chiqarishni tashkil etish, kengaytirish yoki/va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilgan ekportbop loyiha.
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Minimal - 250,000 Evro (AQSh doll. ekvivalentida); Maksimal - kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan krediting maksimal muddati	Belgilanmagan
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	EUROIBOR 6M + xorijiy bank marjasi (yillik 1.5-2.5%) + "Asaka" bank marjasi (yillik 4%)
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	12 oygacha
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari	Boshqaruv uchun komissiya – kredit summasining 0,50%; Majburiyat komissiyasi – yillik 0,25%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	1) Loyihaning boshlang'ich qiymatining 15%dan kam bo'lmagan miqdorda
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a'zosi
Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi)	Kredit liniya bo'yicha garov ta'minoti sifatida Eksport kredit Milliy agentligining sug'urta polisi qatnashadi, EKMA tomonidan sug'urta qiymati kredit summasining 8-12,5% tashkil qiladi

**«Asaka» bankda Koreya Eksport-import banki (J.Koreya) kredit liniyasi bo'yicha
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi.
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Koreya kapitali ishtirok etgan kompaniya uchun: - asbob-uskuna sotib olish va o'rnatish; - strategik investitsiyalar Koreya kapitali ishtirok etmagan kompaniya uchun: - asbob-uskuna sotish va xizmat ko'rsatish; - asbob-uskuna sotib olish
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Minimal summa - 200 000,0 AQSh dollari Maksimal summa – kredit liniyasining o'zlashtirilmagan summa miqdorigacha.
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan krediting maksimal muddati	6 yil
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	Libor 6M + xorijiy bank marjasi (har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi, 2% atrofida) + "Asaka" bank marjasi (har bir loyiha bo'yicha alohida aniqlanadi)
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	1 yil
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari	Boshqaruv uchun komissiya – kredit summasining 0,1%; Majburiyat komissiyasi yillik - 0,3%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	Loyiha umumiy qiymatining 25%dan kam bo'lmagan miqdorda
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Janubiy Koreya

**Osiyo Taraqqiyot Banki kredit liniyasi to'g'risida
MA'LUMOT**

**“Kichik va mikro moliyalashtirishni rivojlantirish” loyihasi
(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 avgustdagi 348-sonli Qarori)**

Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda dehqon va fermer xo'jaliklari
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Kichik tadbirkorlik (biznes) va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish kengaytirish uchun
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan krediting maksimal summasi	2003 yil 25 sentyabrdagi №1963-UZB-sonli "Qarz berish" bitimi, 2004 yil 7 iyundagi "Qayta kreditlash Kelishuvi"ga binoan ajratiladigan kredit mablag'i milliy valyutada taqdim etiladi Kredit mablag'lari 2 xil tartibda ajratilishi mumkin: 1. OTB kredit liniyasi hisobidan qarz oluvchilarga qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar 10 ming AQSh dollarining so'mdagi ekvivalentidan oshmagan miqdorida; 2. Qisqa muddatli kreditlar (investitsion maqsaddan tashqari) OTB kredit liniyasi ishtirokida 35 ming AQSh dollarining so'mdagi ekvivalentidan oshmagan miqdorda ajratilishi mumkin, bunda moliyalashtirish manbaasi sifatida 10 ming AQSh dollarining so'mdagi ekvivalenti OTB kredit liniyasi mablag'i hisobidan, qolgan 25 ming AQSh dollarining so'mdagi ekvivalenti esa bankning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal summasi	1 000 (ming) AQSh dollari.
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	Banklararo depozitlarning 6 oylik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi (UZIBOR)ga Moliya Vazirligi hamda "Asaka" bank (OAJ)ning marjalari qo'shilgan holda
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan krediting maksimal muddati	3 yilgacha
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	6 oygacha (faqat asosiy qarz uchun)
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari	Komissiyalar to'lanishi ko'zda tutilmagan
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	Loyiha qiymatining 25%dan kam bo'lmagan miqdorda
Kredit hisobidan xarid qilinadigan tovarlarning kelib chiqish mamlakati	OTBga a'zo mamlakatlar hududida ishlab chiqarilgan tovarlar, bajarilgan ishlar (ro'yxati ilova qilinadi)
Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa	Qarz oluvchi OTB tomonidan o'rnatilgan quyidagi moliyaviy koeffitsientlarga rioya qilishi shart:

<i>muhim shartlar ko'rsatiladi)</i>	- Aktivlarning daromadliligi koeffitsienti ("doxodi na aktivi" yoki "return on assets") 12% dan kam bo'lmashligi; - Loyiha amalga oshirilishi davrida kreditga xizmat ko'rsatish koeffitsienti ("koeffitsient obsl. dolga" yoki "debt service coverage ratio") 1,25 martadan kam bo'lmashligi O'zR VM 2003 yil 11 avgustdagi 348-sonli Qaroriga binoan: Loyiha doirasida uni amalga oshirish davrida import bo'yicha olib kelinayotgan tovarlar, ishlar (xizmatlar) bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari), OTBning kredit liniyasi mablag'lari (qarz mablag'lari) hisobiga Respublika hududida xarid qilinadigan tovarlar, ishlar (xizmatlar) esa ko'rsatib o'tilgan Loyihani amalga oshirishga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ulushi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilinadi Kredit qaytarilmasligi xatariga yo'l qo'ymaslik maqsadida qarz oluvchi ta'minotga ega bo'lishi kerak, uning tez sotiluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi (realizuemost) buning asosiy talabi hisoblanadi. Qarz oluvchi bankka ta'minotning quyidagi turlaridan birini taqdim etishga haqlidir: - mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi; - bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati; - uchinchi shaxslar kafilligi; - qarz oluvchining kreditni so'ndirmaslik xatarini sug'urtalashi to'g'risida sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi OTB kredit liniyasi mablag'lari hisobidan yoki ishtirokida ajratiladigan kreditlar, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ta'qiqlangan faoliyat turlarini, shuningdek, Halqaro sog'liqni saqlash hamda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan ta'qiqlangan, shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni, alkogol, tamaki, narkotik, portlovchi, radio-aktiv mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmaydi
--	--

**Ipak Yo'li bank bo'yicha KFW (Germaniya) kredit liniyasi to'g'risida
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Kichik biznes
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Ishlab chiqarishni rivojlantirish
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Maksimal 500 000 Evro
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati	5 yil
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	(3-5% kredit liniyasi) + (4-7% bank marjasi)
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	2 yil
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari:	
Loyihani kurib chikish uchun komissiya	0,2%
Kredit uzlashtirilmagan kismi uchun komissiya	3%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	25%
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Cheklanishlar mavjud emas
Boshqa shartlar (<i>ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi</i>)	Kreditni oldindan qaytarish uchun kredit foiz stavkasidan 50% komissiya olinadi.

**Ipak Yo'li bank bo'yicha KFW (Germaniya) kredit liniyasi to'g'risida
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Kichik biznes
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Ishlab chiqarishni rivojlantirish
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Maksimal 500 000 Evro
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati	5 yil
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz	(3-5% kredit liniyasi) + (4-7% bank marjasi)

to'lovlari	
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	2 yil
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari:	
Loyihani kurib chikish uchun komissiya	0,2%
Kredit uzlashtirilmagan kismi uchun komissiya	3%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	25%
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Cheklanishlar mavjud emas
Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi)	Kreditni oldindan kaytarish uchun kredit foiz stavkasidan 50% komissiya olinadi.

**Ipak Yo'li bank bo'yicha Landes Bank Berlin (Germaniya) kredit liniyasi to'g'risida
MA'LUMOT**


I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot	
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish sohasi	Kichik biznes
Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi	Ishlab chiqarishni rivojlantirish
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi	Minimal 250 000 evro
Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati	7 yil
Ajratilgan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari	6 oylik Euribor + 2% chet el banki marjasi + 4% Ipak Yo'li bank marjasi
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	Asbob-uskuna o'rnatilgandan so'ng 6 oy
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari:	
Loyihani kurib chiqish uchun kredit summasidan	0,2%
Kredit uzlashtirilmagan kismi uchun komissiya	2%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi	15%
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati Yevropa davlatlari bo'lishi lozim
Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi)	-

**“Hamkorbank” OATB bo'yicha Osiyo taraqqiyot bankining “Kichik biznes va mikromoliyalashni rivojlantirish. 2-faza” loyihasi to'g'risida
MA'LUMOT**

I. Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit ajratish to'g'risida ma'lumot.	
Kredit liniyasi mablag'larini yo'naltirish sohasi.	Kichik va mikro biznes sub'ektlarini moliyalashtirish maqsadida.
Kredit liniyasi mablag'larini yo'naltirish maqsadi.	Asosiy vosita sotib olish va aylanma mablag'larni ko'paytirish.
Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi.	Mikro kredit - 1.000 AQSh Dollargacha Kichik biznesga - 20.000 AQSh Dollargacha.
Mazkur kredit liniyasi hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati.	36 oygacha.
Bank tomonidan mijozlarga ajratiladigan kreditlar uchun to'lanadigan yillik foiz stavkasi.	AQSh Dollaridagi kreditlar uchun eng kamida 12% yillik, milliy valyutada berilgan kreditlar uchun eng kamida 18% yillik.
Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr	12 oygacha
Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari.	Yo'q.
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining loyihani moliyalashtirishdagi ulushi.	Eng kamida 30%.
Kredit hisobidan xarid qilinadigan asbob-uskunalarining kelib chiqish mamlakati	OTB tomonidan taqdim etilgan ro'yxat bo'yicha.

Boshqa shartlar (ushbu jadvalda ko'zda tutilmagan boshqa muhim shartlar ko'rsatiladi)	1. Tadbirkor ayollarni qo'llash. 2. Atrof muhitni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, xavfsizlik va ijtimoiy himoyalash maqsadida belgilangan me'yorlarga amal qilish. 3. Moliyalashtirishdagi bankning ulushi 50%ni tashkil qiladi.
---	--

**O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning
asosiy tamoyillari⁴²**



⁴² Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqildi.

Xitoy taraqqiyot banki faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari⁴³

01.01.2014 yil holatiga

Jami aktivlar	4 541,1	5 112,3	6 252,3	7 520,3	8 188,0
Kredit portfeli, mlrd. yuan*	3 708,4	4 509,7	5 525,9	6 417,6	7 148,3
Kredit portfelida muammoli kreditning ulushi, %	0,94%	0,68%	0,40%	0,30%	0,48%
Xususiy sarmoya, mlrd. yuan	379,9	402,5	445,3	498,6	562,0
Kapitalning yetarlilik koeffitsienti, %	11,83%	10,87%	10,78%	10,92%	11,28%
Sof foyda, mlrd. yuan	31,9	37,1	45,6	63,1	79,9
Sof foizli daromadlar, mlrd. yuan	74,4	87,7	116,5	154,4	171,5
Aktivlar rentabelligi koeffitsienti, %	0,76%	0,77%	0,80%	0,92%	1,02%
Xususiy sarmoya rentabelligi koeffitsienti, %	8,76%	9,49%	10,76%	13,37%	1507%

* valyuta kursi: Xitoy yuani (CNY)/AQShdollari (USD) = 0,1652

⁴³ www.cdb.com - Annual Report 2013.